

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA**  
**INSTITUTI**

**O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 - o'zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

**MATYAQUBOVA OYGUL TO'LIBAY QIZIning**  
**MIRTEMIR SHE'RIYATIDA XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARI**

**mavzusidagi**

**BITIRUV - MALAKAVIY ISHI**

**NUKUS – 2016**

Bitiruv malakaviy ishi o‘zbek adabiyoti kafedrasи yig‘ilishining 2016- yil \_\_\_\_\_dagi №\_\_\_\_ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani: f.f.n., dots. G.Qurbaniyazov

Kafedra mudiri: f.f.n., dots. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. H.Abdullayev,  
assistant G.Pashiyeva

Bitiruvchi: O.Matyaqubova

Matyaqubova Oygulning „Mirtemir she‘riyatida xalq og‘zaki ijodi an‘analari“ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan \_\_\_\_ ball (\_\_\_\_%) qo‘yildi.

„ \_\_\_\_ “ 2016- yil

DAK kotibasi: G.Pashiyeva

## **M U N D A R I J A**

**KIRISH.** Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi.....4

### **I BOB. MIRTEMIR IJODIDA FOLKLOR**

1. 1. Mirtemirning lirik she‘rlarida folklor.....	8
I. 2. Mirtemirning sochma va dostonlari xususida.....	18

### **II BOB. MIRTEMIR SHE‘RIYATIDA BADIY MAHORAT**

2.1. Mirtemir she‘riyatining badiyati, o‘ziga xos xususiyatlari.....	24
2. 2. Shoir she‘riyatida yetakchi motivlar.....	33

### **III BOB. TA‘LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI**

3.1. Mavzuni ta‘lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar.....	47
3.2. Dars ishlanmasi.....	50
<b>XULOSA.....</b>	<b>57</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>60</b>

## KIRISH

### BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi.** XX asr o‘zbek adabiyotida Mirtemir poeziyasini o‘rganish, badiiy o‘ziga xosliklarini aniqlash, ularni yaxlit badiiy sistema sifatida tadqiq etish, davr, ijtimoiy voqelik va ma’naviy hayot taqozasi bilan yuzaga kelgan belgilarni kuzatish, Mirtemir lirikasi janrlari sistemasida tutgan o‘rnii va ahamiyatini belgilash, mavqeini tahlil va tadqiq etishdan iboratdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, iqtisodiy siyosiy-ijtimoiy sohalarda islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan bir qatorda, madaniy va adabiy merosimizga ham munosabat tubdan o‘zgardi. Bu jarayonda adabiy qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi va komil inson tarbiyasidagi o‘rnii hamda mavqeiga e’tibor kuchaymoqda. O‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida milliy g‘urur va badiiy nafosat urug‘larni undirishda san’at va adabiyotning o‘rnii beqiyosdir. Yurtboshimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: „Ma’naviyat—insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir“.<sup>1</sup>

Mashhur faylusuf Hegel ta’biri bilan aytganda „san‘at obrazlar orqali fikrlashdir“. Badiiy adabiyotning asosiy belgisi va odamga chuqur ta’sir etishning boisi uning obrazli ekanidir. Badiiy obraz ijodkorning fikr, tuyg‘u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan manzara tasviri bo‘lib, kengroq ma’noda poetik obraz atamasi bilan ham yuritiladi. Adabiyotning asosida inson obrazi turar ekan, uning ruhiy olamini kashf etish ijodkorning bosh maqsadi hisoblanadi. Ijodkor mahorati ham bevosita inson qalbining kechinmalarini qay darajada haqqoniy tasvirlay olishi bilan belgilanadi. Zero, U Normatov haqli ravishda ta‘kidlaganidek, „Inson va uning tabiat, qalbi, ruhiyati haqiqatini kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi, uning o‘rnini bosolmaydi“<sup>2</sup>.

Ma’lumki, har bir ijodkor o‘ziga xos iste‘dod sohibidir. Ular inson ruhiyati

<sup>1</sup> Karimov.I.A Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, 2008 –yil, 59-bet

<sup>2</sup> Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. 98-bet.

manzaralarini faqat o‘ziga xos, boshqlarga o‘xshamagan tarzda kashf etadilar. Chunki, har bir ijodkor shaxsning o‘z ruhiy olami, e’tiqodi, shaxs sifatidagi xislat va fazilatlari turlicha bo‘ladi.

She‘riyat so‘z san’atining boshqa turlariga qaraganda o‘zining nafisligi bilan, his-tuyg‘ularning jo‘shqinligi, obrazlilikning serqatlamliligi va ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi. Zero, she‘r inson qalbining tub-tubidan otilib chiqayotgan tuyg‘ular tug‘yoni, voqelikka bo‘lgan ehtirosli va murosasiz munosabat ifodasidir. Shu bois she‘riyat inson qalbi dramatizmini butun ziddiyatlari bilan, butun po‘rtanalari, isyonlari bilan aks ettirishga qodir bo‘lgan ilohiy qudratga ega kuchdir. Shunga ko‘ra she‘riyat olami, she‘r hodisasi, uning o‘ziga xos tabiatи adabiyotshunoslar, faylasuflar, nafosatshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘tgan asrning oltmishinchи yillarda o‘zbek adabiyotshunoslida adabiyotshunoslilik va adabiy tanqidchilikda Mirtemir ijodining ilmiy asosda o‘rganish va yoritish sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi. T.Jalolov, O.Sharafiddinov, S.Mamajanov, N.Karimov, H.Olimjanova maqolalarida, K.Azimovning „Mirtemir“, I.G‘afurovning „Ona yurt kuychi“, T.Xalilovning „Mirtemir mahorati“, B.Qurbanbaevning „Mirtemir – do‘stlik va qardoshlik kuychisi“ risolalarida shoir asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bayon etildi. Shunga ko‘ra, maqola va risolalarni Mirtemir ijodini ilmiy asosda o‘rganish sohasidagi dastlabki yutuq deb hisoblash mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi.** Adabiyot darslarida Mirtemir ijodini yangilangan pedagogik tafakkur asosida o‘rgatishning samarador metod va usullarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning vazifalari:** 1. XX asrning o‘zbek she‘riyati taraqqiyotida Mirtemir poeziyasini o‘rganish, ilmiy tadqiq va tahlil qilish orqali o‘zbek she‘ryati janri rivojiga xos etakchi an‘ana va tamoyillarni belgilash.

2. Bu an‘ana va tamoyillar milliy she‘ryatimizda qanday shaklda vujudga kelganligini bir qator she‘rlari misolida ilmiy jihatdan asoslab berish; „Surat“, „Suv qizi“ dostoning ijodiy tarixini, shoirning hayot materialidan badiiy haqiqat

yarattish mahoratini tadqiq etish, doston syujetining shaklanish jarayonini o‘rganish,obraz va xarakterlarning milliyligini belgilashni aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti.** Mirtemirning nashr etilgan to‘plamlari, umumta‘lim maktablari darsligidan joy olgan ijod namunalari, shoir ijodi to‘g‘risida e‘lon qilingan ilmiy maqola va tadqiqotlar malakaviy bitiruv ishining tadqiqot obyektini tashkil qiladi

**Tadqiqotning predmeti.** Tadqiqotimiz uchun Mirtemirning lirik she‘rlari, dostonlari va o‘zbek olimlarining asarlaridan mavzuni yoritish jarayonida qo‘srimcha manba sifatida foydalanildi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Ishimizga o‘zbek adabiyotshunosligidagi yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, Prezidentimiz I.A.Karimovning „Yuksak ma‘naviyat- yengilmas kuch“, „Adabiyotga e‘tibor, ma‘naviyatga, kelajakka e‘tibor“ kabi kitoblaridagi adabiyotga tegishli fikrlar ham bizning bitiruv malakaviy ishimiz uchun metodik manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, T.Jalolov, O.Sharafiddinov, S.Mamajanov, N.Karimov, H.Olimjanova kabi o‘zbek olimlarining asarlariga tayanildi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Mirtemir ijodiga tegishli materialini tanlash, unga yondashish hamda tahlil etishdagi o‘ziga xoslik bilan belgilanadi. Mirtemir she‘riyati o‘zbek lirikasining folklor an‘analari bilan qanchalik puxta bog‘langanligi, ijodiy davom ettirilayotgani, poeziya tarixini ta‘minlovchi barkamol avlod namunalarining mazmundorligi ijodiy metod va san‘atkor dunyqarashi bilan bog‘liqlikda ochib beriladi. „Suv qizi“, „Surat“ dostoni yangi qarashlar misolida ilk marotaba o‘rganildi. O‘zbek adabiyotida ushbu dostonlar badiiy mahorat yo‘nalishida jiddiy tahlil etilib, yutuq hamda kamchiliklari ko‘rsatiladi. Shoirning „Suv qizi“ dostonining ijodiy tarixi yangi ma’lumotlar bilan to‘ltirildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Umumta‘lim maktablarda Mirtemir ijodini o‘rganish yuzasidan to‘plangan tajribalar tahlil qilinadi;

- Yozuvchi ijodini o‘rganishning pedagogik asoslangan metodlari tavsiya etiladi;
- Tavsiya etilayotgan metodlar tumandagi maktab, litsey hamda kasbhunar kollejlarida sinovdan o‘tkaziladi;
- Bu narsa tadqiqot ko‘lamini kengayishiga, undagi tavsiya etilayotgan uslublarning amaliyotga tezroq kirib borishiga imkoniyatlar yaratadi;
- Tadqiqot ishi manbalaridan talabalarga, o‘quvchilarga shu mavzu yuzasidan ma‘ruzalar o‘qishda, kurs ishlari yozishda, turli adabiy-badiiy tadbirlar o‘tkazishda manba sifatida foydalinish imkoni tug‘iladi.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** Bitiruv malakaviy ishi Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kafedrasi yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilindi. Mirtemir ijodi bo‘yicha o‘quv yilida kurs ishi bajarildi va Nukus shahar XTMFMTTE bo‘limiga qarashli 3-sonli umumta’lim maktabidagi pedagogik amaliyot jarayonida ochiq dars tashkil etildi.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, boblarning ichki bo‘linishi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 60 sahifani tashkil etadi.

## I BOB. MIRTEMIR IJODIDA FOLKLOR

### Mirtemirning lirik she‘rlarida folklor

O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemir XX asr o‘zbek she‘riyatini tom ma‘nodagi lirik she‘rlar va badiiy yuksak dostonlar bilan boyitdi. Uning asarlarida xalq hayotining nafasi ufurib turadi, inson qalbi eng teran puchmoqlarigacha aniq ko‘rinadi, ona yurtning turfa xil ranglari jilolanadi. Komil Yashin ta’kidlaganidek: „Mirtemir o‘zbek yangi she‘riyatining tamal toshini qo‘ygan ustoz, oqsoqol shoirlarimizdan. U g‘oyatda mehnatkash, jafokash, hassos, bilimdon, kamtar, zukko so‘z san‘atkordir. Vatanparvar shoir mumtoz adabiyotimizning barhayot an‘analarini, xalq o‘g‘zaki ijodini chuqur o‘rganib, o‘zbek adabiyotini boyitdi, hozirgi zamon she‘riyatimizni yuksaklikka ko‘tarishda zo‘r kuch sarf etdi“.<sup>1</sup>

O‘zbek munaqqidlari Mirtemirni „o‘zbek she‘riyatining bobodehqoni “deb ataganlarida haq edi. Chunki, Mirtemir butun ijodi umri mobaynida o‘tkinchi zamon hodisalari, siyosiy shiorlarga hozirjavoblikdan ustun turadigan chinakam she‘riyatni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Shoir haqiqiy she‘rning umrboqiyilik sirlarini teran xalqchillikda deb bildi. Bunday xalqchillik Mirtemir she‘rlarining g‘oyaviy kompozitsion vujudida qon kabi aylanadi, unga latiflik va serma’nolik bag‘ishlaydi. Xususan, „Qarqaralik“ she‘rida folklor ruhi juda yorqin seziladi. Uni o‘qiganingizda ruhingizga iliq, mayin va yoqimli bir his kirib kelayotgandek tuyuladi.

Qarqaralik, qaydan kelding qoshimga,

Qaydagi savdoni solding boshimga.

Qaydagi savdoni solding boshimga,

Qota ko‘rma qatron mening oshimga

E‘tibor bersangiz, bu misralarda hamma shoirlarning she‘rlarida uchrayvermaydigan o‘ziga xos bir ohang bor. Bu ohang bizga tanish, uni qayerdadir tinglaganmiz. Nihoyat eslaymiz:

---

<sup>1</sup> Mirtemir. Asarlar. 1-jild. -T.:1980,5-bet.

Ko'kkina qirg'iychaning qanotlari bir naychayo,  
Bizni yorlar yuboribdi tilladan tumorchayo,

Bizni yorlar yuboribdi tilladan tumorchayo,  
Men anga qaydin topay kumushdan yorliqchayo.

Ko'ramizki, „Qarqaralik“ she'rining misralaridagi tuyg'ular oqimi xalq laparlari bilan ohangdosh ekan. Xo'sh, bu ohangdoshlik aniq holda nimalarda o'zini namoyon qiladi? Mirtemirning mazkur she'rida folklor motivida loaql birorta maqol ham yo'q. Ammo, undagi folkloriga yaqinlik, folklorona ohangni nimalar yuzaga chiqaradi?

„Qarqaralik“ she'riga mana shu savollar bilan yondashsak, adib badiiy mahoratining muayyan qirrasini anglash mumkin bo'ladi. Bizningcha, Mirtemirning mahorati ayni xolatda xalq she'riyatiga xos poetik san'atlar vositasida oydinlashadi. Ma'lumki, xalq og'zaki badiiy ijodiyoti janrlari shaklan rang-barang stilistik shakllar kombinatsiyasiga asoslanadi. Chunonchi, xalq laparlaridan yuqorida keltirilgan parchada alliteratsiya va fonik anafora san'atlarining uyg'unligini ko'ramiz. Xuddi mana shu uyg'unlikni „Qarqaralik“ she'idan yuqorida keltirilgan parchada ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni, to'g'ri misradan chuqr til orqa „Q“ tovushi ham bo'yiga, ham eniga „xokimlik qilayapti“. Birinchi misrada to'rt karra takrorlangan „q“ undoshi „k“ bilan birgalikda yaxshi bir oxangni vujudga keltiradi: Qarqaralik, qaydan kelding qoshimga.. misrada undosh tovushlarning takroriga asoslangan mana shunday oxangdoshlik she'rshunoslik tilida konsonant alliteratsiya deb yuritiladi. Ikkinchi, uchinchi misralarning o'rtasida takrorlanib kelgan „savdo solding - savdoni solsang“ birikmalari asosida, shuningdek, to'rtinchisini misradagi „qota ko'rma qatron“ gapida ham shoir tamonidan ataylab tuzilgan ohangdosh undoshlar takrorini ko'ramiz.

Endi, she'rdagi poetik obrazning xalqchil talqini masalasiga to'xtaladigan bo'lsak. Tahlil uchun ixtiyoriy masalan ikkinchi bandni tanlaymiz.

Qosh ustiga qo‘ndiribsang qarqara,  
Qora soching qora tunda marmara,  
To‘lqinida koshki o‘zim cho‘milsam  
Shaydoyingman, gar qarama, gar qara.

Qarqara-tillaqoshning attorlik ustaxonalarida oddiy misdan yasalgan, bozorlarda kambag‘allarning qizlari sotib oladigan turi bo‘lib, asardagi lirik qahramon qoshi ustiga qarqara qo‘ndirilgan qizning shaydosi. Ammo, u qiz sho‘xlik qilib, qahramonga mayl va mehribonlik ko‘rsatmaydi. Shunga qaramay, shaydo ko‘ngil hayol va orzu bilan yashaydi.

Bandning birinchi va to‘rtinchi misralari bizningcha, „cho‘milsam“ so‘zini e‘tiborga olmaganida, xalqning to‘pori she‘riyatiga hamohangdir, ikkinchi va uchinchi misralarda esa, shoirning individual uslubi, hamda klassik she‘riyatimizning obrazlilik an‘analari ustunlik qiladi.

O‘zbek qizlarining sochi, odatda qora bo‘ladi. Tun ham, tabiiyki, qora rangda. „Qora soching qora tunda sharshara“ degan misrada shoir “qora” so‘zini nima uchun ikki karra ishlatgan?

Buning sababi, bizningcha, misrada va umuman, bandda evfoniya hosil qilish uchun „qora“ so‘zining takrori orqali alliteratsiya san‘ati qo‘llanilgan. Mirtemirning lirik qahramoni tunda ana shu sharsharaning to‘lqinida cho‘milishni orzu qiladi. Shunga o‘xhash obrazli holat A. Oripov tomonidan ham „tepamda tun kabi quyuladi soch“ qabilida qo‘llanilgan.

Qarqaralik, izlab kelding, yo‘l olis,  
Olis yo‘lda cho‘l olisu, ko‘l olis,  
Bir qaragin, ko‘zginangdan bilayin  
Dardlikansan yaqin, yoki bo‘l olis.

Qarqaralik, soylaringni kechgum bor.  
Olislardan keldimu, gap o‘zingda  
Mayli desang qarqarangga qo‘ngum bor.  
Qarqaraning o‘rdagiey, g‘oziey,

Yozlari-yu, ko‘zlarining sozi-ey.

Yo „ha“ si bor, yo „yo‘g‘i“ bor, ne bilay

O‘rtavordi qarqaralik nozi-ey.

Yuqoridagi bandning misralarida shoirning lirik qahramoni ma‘shuqasiga bo‘lgan muhabbatini, sevgisini qarqaraga qarata izhor etadi. Har bir misrada ishlatilgan „olis“ so‘zi qofiyalanib, misralarning yanada jarangdor bo‘lishiga ta’sir etgan.

Shoirning mahoratini yana boshqa asarlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Buning boisi shuki, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan, buvilar tomonidan entikib aytilgan cho‘pchaklar, ertaklar, afsonalar shoir qalbiga singib ketgan edi. U o‘zining „Ola qarga“ she’rini ham ana shu taassurotlar asosida yozganiga shubha yo‘q.

Ola qarg‘a yashar emish uch yuz yil

Qarg‘achalik yasholmaskan, hatto fil.

Bobolar der: cho‘qda emish bir ko‘zi

Quv va sergak o‘qda emish bir ko‘zi

Oshyoni ham tik cho‘qqida-tog‘damish,

Ne olg‘ir qush ololmayin dog‘damish,

Ola qarg‘a tashlamasmish qo‘shog‘in,

Ardoqlarmish oshyonida ushog‘in.

Qo‘shog‘iga hech olalik bilmasmish,

Ushog‘iga hech dag‘allik qilmasmish,

Agar noxos qo‘shog‘iga tegsa o‘q,

Bu ham darhol qilar emish o‘zin yo‘q.

Vafodormish, ko‘ngilchakmish, kuyinchoq,

Shu vajdan ham qanotida yo‘l-yo‘l oq.

Arzir emish oq qanotlik bo‘lsa ham,  
To‘kis-tugal yaxshi otlik bo‘lsa ham...

Zotan, afsona va rivoyatlar qanchalik to‘qima bo‘lmasin, ularning zamirida haqiqat,adolat yotadi. Balki, shu haqiqatni chuqur anglab etish shoirni xalqining milliy she’rdagi podshohi, atoqli xalq shoiri darajasiga ko‘targandir.

Xalq og‘zaki ijodiyotini u o‘zining oliy maktabi deb hisoblaydi. Xalq poeziyasining samarali ta‘siri Mirtemirning ijodida ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, shoirning ko‘pgina she‘rlari bevosita xalq poeziyasi namunalariga taqlid qilib yoziladi. Shoир xalq qo‘shiqlarining shakli, qofiya va radiflar tartibi, ichki qurilishi ritmikasini olib, ularda yangicha mazmunni ifodalaydi. Bunday she‘riyat ko‘proq qo‘shiq usulida yozilib, chuqur lirizm bilan sug‘orilgan bo‘ladi.

Masalan, shoirning „Boqishi“ nomli qo‘shig‘ini olaylik.Bu jarangli misralarda shoir suyukli yor obraziga chizgilar beradi.

Ko‘nglimga cho‘g‘ soldi, cho‘g‘ soldi netay  
Jovdirab, jovdirab jayron boqishi  
Xanjarsiz jon oldi, jon oldi netay,  
O‘sha nozik ado jonon boqishi.  
yoki

Bo‘ylarida suqsur uchar, g‘oz uchar  
Qirg‘ovul, oqquvlar etib noz uchar  
Bulbul o‘qir, nag‘ma xushovoz uchar  
Qishni quvib ko‘klam uchar, yoz uchar  
Ko‘kka to‘lar savt-sado, yali-yali

Bu she‘r ham xalq laparlariga hamohang bo‘lib, „yali-yali“ nomi bilan shu kunga qadar xalqimiz tomonidan eng sevimli qo‘shiq bo‘lib kuylanib kelinmoqda. Bu she‘rda shoir xalq qo‘shiqlari shaklidan juda ustalik bilan foydalangan.

Dasht yuziga yurdi elim-qahramon,  
Qudrati zo‘r-topmagusi tog‘ omon.  
Baxt suvini ochgusi u begumon,

Bo'ston bo'lib suvgaga qonib har tomon.  
To'lqinida mehru-vafo yali-yali  
Daryosi ko'p dardga davo yali-yali  
Lim-lim oqar, bo'lmas ado yali-yali  
Boqmay o'tar asti qiyo yali-yali  
Shovqinidan to'ldi havo, yali-yali.

Qarang, qancha serbo'yoqlik, ko'pqirralik va samimiyat, xalqchilik va xalq ruhi, chuqur ma'no, nafis lirklik, ajoyib kuy bor bu misralarda. Shu munosabat bilan men shuni ta'kidlab aytib ketishim zarurki, yaxshi qo'shiqning asosi - bu baquvvat she'rdir. Xalqchilik, samimiyat, chuqur sotsial ma'no ufurib turgan bu she'rga o'ziga o'xshagan, judayam go'zal, nafis, jo'shqin, hayotbaxsh musiqa bastalangan ekan. Men musiqaning muallifini bilmayman, lekin biz quyi sinflarda o'qigan paytalarimizda radiordan bu qo'shiq tez-tez taralar edi. Ilk marta eshitganimdayoq, bu qo'shiq meni sehrlagan. O'ylaymanki, bu qo'shiqni eshitgan, tanigan kishilar mening bu fikrimga qo'shilsalar kerak. Chunki bu kabi qator qo'shiqlar misolida bir betakror san'at asari yaratilganda axir!

Bu go'zal mo'jizaning muallifi esa, xalq sevgan shoir xalqning shoiri Mirtemir domlada!

Ko'nglim koshonasi bo'lib mehmonim,  
Bog'imda bu oqshom jonon o'ynasin,  
Gulday chiroyiga bo'lay sadag'a,  
Ochilib-sochilib chunon o'ynasin

Xipcha belga bog'lab yashil rang nashr,  
Gullar, chechaklardan taqsin gulchambar,  
Tengi yo'q o'yinchi, tengi yo'q dilbar,  
Tomoshaga kelib osmon o'ynasin!

Muvaffaqiyat qozongan har bir yaxshi qo'shiqning boisi uning she'ridir. Ya'ni, yuqorida aytganiddek, haqiqiy she'riyat yaxshi qo'shiqlarning asosidir. Shoirning

lirik „Oysuluv“ dostonidan keltirganim yuqoridagi she‘rga teng darajali qo‘shiqni hech kim yarata olmagan deb o‘ylayman.

Qo‘shiqlarda Mirtemir so‘zdan go‘yo rassom bo‘yog‘i kabi foydalanib, rangin tabiat manzaralarini gavdalantirar ekan, ularni har doim inson qalbi bilan uzviy bog‘liqlikda jonlantiradi.Oqibatda biz qo‘shiqlar orqali inson ruhining nihoyatda nozik va ko‘z ilg‘ashi qiyin bo‘lgan qirralari, talpinishlari, intilishlar, ya’ni hissiyotning oqar daryodek harakati bilan tanishamiz. Bu daryoda muhabbat tuyg‘usi eng qudratli to‘lqin singari mavjlanib turadi. Ha, Mirtemir qo‘shiqlarining aksariyati muhabbat haqida bo‘lib, ular bu umrboqiy tuyg‘uning son-sanoqsiz jilvalari-yu jilolarini, hayratomuz qudrati-yu tengsiz go‘zalligini zargarona tizilgan so‘zlar marjoni vositasida yuzaga chiqaradi. Oddiy so‘zlar tizmasida ulkan hayot haqiqatini ta’sirchan ifodalashdek san’atkorlikka Mirtemir o‘z qo‘shiqlarida jonlantirish, istiora, sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a singari majozlardan g‘oyatda o‘rinli foydalanish orqali erishdi. Bunga iqror bo‘lmoq uchun „Bir go‘zal“ qo‘shig‘idagi quyidagi misralarni eslash kifoya:

Deydilarkim, shahrimda bir go‘zal bormish,

Har oqshom boqqa kirib mani so‘rarmish.

Izlarimni topolmay ohlar urarmish -

Gir-gir yurarmish, hayron bo‘larmish.

O‘ltirib yaproqlar-la suhbat qurarmish,

Ishq uchun osmas kimsa meni, deb dorga -

Ba’zan qo‘lin cho‘zarmish mungli dutorga,

Sog‘liqlar tilar emish olisda yorga,

Asl xushtorga, hajrida zorga...

Salomlar yo‘llar emish bu intizorga.

Bu misralarda go‘zal bilan suhbat qurgan yaproqlarning jonlantirilishiga, „mungli dutor“ kabi sifatlashlarning ajib jozibadorlik kasb etishiga duch kelamiz va ularning inson ruhidagi o‘ta nozik to‘lg‘anishlarni ifodalovchi vositalarga aylanganligini anglaymiz. Shunday tasviriy vositalar tufayli biz shoir qo‘shiqlarida

sevgilisidan ayrılgan go‘zalning yaproqlar bilan suhbat qurishiga, tomoshaga kelgan osmonning o‘ynashiga, beparvo oshiq yigitning osmondagi yulduzlarni sanab yetmoqchi bo‘lganligiga hayron qolmaymiz. Xuddi shu san‘atkorlik oqibatida Mirtemir qo‘shiqlari katta ishontirish quvvati va samimiyat kasb etadi.

Eng ulug‘vor ijtimoiy-tarixiy voqealar, genial shaxslar yoki ona xalq, Vatan haqida yozganda ham, Mirtemir doim samimiyl bo‘lib qoladi. Ya‘ni u o‘z qo‘shiqlarida balandparvoz hayqiriqlarga, tantanavor shiorlarga, osmono‘par na’ralarga deyarli o‘rin bermaydi. U o‘z qo‘shiqlarida insonning ezgu tuyg‘ularini samimiyl kuylash bilan bir qatorda, kishilar iztirobidan, ma’naviy olamning azobu alamlariga to‘liq onlaridan, fojilar girdobidan, qayg‘u-hasratlar po‘rtanasidan ham ko‘z yummaydi. Inson qalbi yonishlarining, qovrilishlarining sirlarini faqat Mirtemir lirik qahramonining bitta o‘zi biladi. O‘zining pinhoniy tuyg‘ularini lirik qahramon mana bunday ayon qiladi:

Qulog‘imda yangrar doim bir nido,  
Xo‘rsinaman, ko‘z yoshimni silaman.  
Shu nidoga ne sababdan jon fido -  
Bitta o‘zim bilaman.

Yuragimda yonar bir o‘t betutun,  
Go‘yo der: qovuraman, tilaman.  
Dosh beraman nechun hanuz men beun -  
Bitta o‘zim bilaman.

Bu misralarda lirik qahramon o‘z sirlarini oshkor ayon qilmasa-da, nozik kechinmalari oqimidan tinglovchi ular hayotdagagi illatlarning, xatoliklarning, tubanliklarning, razilliklarning oqibati ekanligini anglaydi. Shu tariqa Mirtemir o‘z qo‘shiqlari orqali bizni turmushning murakkab tomonlari to‘g‘risida o‘ylashga majbur etadi va hayot haqida bo‘yalmagan, yaltiratilmagan, mukammal tasavvur tug‘dirishga intiladi.

Mirtemir ijodida folklor ta‘siri, ikkinchidan shunda ko‘rinadiki, u xalq maqollaridan ustalik bilan o‘z o‘rnida foydalana olgan.Uning o‘zi ham xalq

maqollariga, hikmatli so‘zlariga tayangan holda aforizmlar yarata olgan.

Tuproq ostida ham zar-hamisha zar,  
Kumushni zang bossa, kumushdir hamon.  
Dengiz tublarida gavhardir- gavhar,  
Chiqar tog‘ tagidan kon ham bir zamon.

Oyni etak bilan yopib bo‘lurmi?  
Tutatqi bo‘lurmi, yulduz cho‘g‘ida  
Aytingchi mard odam aslo o‘lurmi?  
Nomi qolar yurt qo‘shig‘ida.

O‘n ikki misrali bu she‘r xalq maqollari va shoir o‘zi yaratgan aforizmlar asosida qurilgan. Ular shunday tanlanganki, natijada, „mard odamning nomi xalq dilida abadiy qoladi“ – degan g‘oyani juda aniq ifodalaydi. Maqollar va aforizmlar qisqa hajmda chuqur ma’no ifodalashga, she’rga ixchamlik bag‘ishlashga yordam beradi. Insonga muhabbat, do‘stlik, vafodorlik tuyg‘ularini ifodalash shoir ijodining yetakchi mavzularidandir va bu hol quyidagi she‘rda o‘z ifodasini topgan.

Qora kun kelganda do‘st keladi ilk  
Nomard do‘st dushmanidan badtar jafodir!  
Yigit ko‘rki esa mardlik, tantilik,  
Aqli rasvo yorning ko‘rki vafodir.

Ko‘rinib turibdki, shoir bu misralarida nodon do‘st boshingga jafo, qora kunda do‘st – vafo maqolini yaratgan. Bu bilan shoir haqiqiy do‘stni boshga kulfat tushganda sinashni, nomard do‘stning esa dushmanidan badtar xavfliligini, yigit kishiga xos bo‘lgan mardlik, tantilikni, chin yorning ko‘rki vafo ekanini e‘tirof etayapti.

Daydir aylanangda dushman podasi,  
Maydonda charxlanur mard irodasi,  
Botirga kuch berar jang shabodasi  
Birga ko‘tarilar zafar bodasi  
Ulug‘ poytaxtga dugona shahar.

Bu misralarda ham shoir „mardlar maydonda sinaladi“ degan g‘oyani ilgari suradi.

yoki

Tun kechar, kelar kunduz  
Mard bir o‘lar, nomard -yuz.  
Noming erkin avjida,  
Porlagay misli yulduz!

Mirtemir bu she‘rini To‘ychi Eryigit o‘g‘liga bag‘ishlab yozgan bo‘lib, yuqoridagi misralarda qo‘llangan maqol To‘ychi Eryigitning qahramonligini ifodalashda o‘z o‘rnini topgan. Bizga ma’lumki, To‘ychi Eryigitov Matrosov singari o‘z tanasi bilan dushman qurolini to‘sgan edi. Uning ko‘rsatgan qahramonligi, ona yurti uchun jonini fido qilganligi shoirining quyidagi satrlarida o‘z ifodasini topgan.

Mirtemir she‘rlarida folklor ta‘siri, yanada shunda ko‘rinadiki, 30-yillarning oxiriga kelib, uning she‘rlarida chinakam soddalik, tilda esa raxonlik va aniqlik vujudga keladi. Shoir har bir she‘rida detallarning ancha aniqligiga erishadi, bironta sun‘iylikka yo‘l qo‘ymaydi, detallar esa chuqur fikrlarni, to‘lqinli hislarni ifodalashga moslashtiriladi. Xalq tilining boyliklaridan, leksik imkoniyatlardan hassoslik bilan foydalanish she‘rlarning soddaligi va aniqligini yanada oshiradi. Mana, shoir qizning dutorda chalgan „Rohat“ mashqidan olgan taassurotini shunday tasvirlagan:

Tun singari asta bosib keladi,  
Suv singari sarin jimib keladi.  
Tog‘ yeliday jo‘shqin esib keladi.  
Ko‘l mavji singari tinib keladi.

Naqadar mung yotar bu pardalarida,  
O‘tgan umrlarning ohu zorimi?  
Qushlar chirqillamas tol-panalarda,  
Usta barmoqlarning ko‘ring korini.

Xalq ijodidan bu tariqa o‘rganish Mirtemir poeziyasi uchun balog‘at sari yol ochdi.

Mirtemir jonli xalq tilidan barakali foydalanish bilan birga, xalq o‘g‘zaki ijodining boshqa xil boyliklaridan ham samarali oziqlanadi. Shoirning „Uxla, qo‘zim“, „Ko‘zlarim yo‘lingda“, „Qo‘schiqlar“, „Yali-yali“ kabi she’rlari fikrimizning dalilidir:

Erkatoyim qayda ekan?  
Yashil-yashil bog‘da ekan.  
Yashil bog‘da netar ekan?  
Olma ko‘chat ekar ekan.  
Olmalari qayda ekan?  
Kelasi kuz oyda ekan

Ko‘rinadiki, „Erkatoy“ she’rida shoir mehnat va uning samarasi haqidagi poetik fikrni xalq qo‘shig‘i uslubida ravon ifodalangan.

### **Mirtemirning sochma va dostonlari xususida**

Shoir faqat lirik she‘rlar yozish bilangina cheklanib qolmadi. U sermazmun va mo‘jizaviy sochmalar muallifi hamdir. Shoir asarlarini mutola qilar ekanmiz, samimiylilik, hayotiylik, soddalik, haqiqat kishini yanada o‘ziga rom qiladi.

Shoir o‘zining serjilo sochmalarida turli mavzularga murojaat qiladi va bu borada ham folklor an‘analaridan ijodiy foydalanadi. „Mehnat“ deb nomlangan sochmasi shoir ijodining ilk mavzulariga to‘g‘ri keladi. Bu she’rida uning so‘zлari chaqiriq, hayqiriq bilan yangraydi. U xalq tarixini ochishga harakat qiladi va unda mehnatning qudratini, „mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik“ degan g‘oyalarni ilgari suradi:

Mehnat-kuch, mehnat-quvvatdir:  
Tangrilardan qudratliroq qudratdir...  
Bulutlar salomchisi-ko‘klar sirdoshi - mudhish,  
Mutakkabir tog‘lar qaltiraydi mehnat qarshisida.

Poyonsiz, hissiz quruq cho‘llar gulbog‘larga aylandi.

Mehnat qarshisida!

Dengizga g‘ulg‘ula soladi mehnat

Shoir o‘z sochmalarida insonni ulug‘laydi, uni tabiatning oliy ne’mati deb biladi. Hayot faqat inson mehnati tufayligina farovon bo‘lishini ta’kidlaydi. „Bu hayotga go‘zallik bag‘ishlovchi, saodat yaratuvchi inson” - degan g‘oyani shoir “Shu qadar mag‘rur” nomli sochmasida aforizmlardan foydalangan holda ilgari suradi.

Inson

Yolg‘iz inson g‘ururlansa bo‘ladi, xayot faqat inson mehnatidangina kuch oladi.

Tabiatning iftixori - gumroh tog‘lar bu shon egasini bilmaydimi?

Ko‘rmaganmi?

„Oynisa“ deb nomlangan sochmasida esa shoir o‘zbek ayolining o‘z hayot yo‘liga nazar solishini realistik lavhalarda xalq tilidan unumli foydalangan holda ifodalaydi:

Yoshligi esida.

Qayg‘usiz o‘ynar edi shu oqar daryo bo‘ylarida

Yuzlari ochiq, ko‘zlari o‘ysiz, erkin-erkin

Yayrar edi shu yashil do‘nglarda...

Bahosiz yoshlik chog‘i esida.

Yoshlik o‘tdi. Bo‘yi yetdi. Kir odat uni zindondek hovliga soldi. U chiqolmaydigan, quvnolmaydigan Oynisa bo‘lib qoldi.

Bundan tashqari Mirtemir sochmalarida ham lirik she‘rlaridagi kabi ritmikani, qofiyadoshlik va xalq qo‘sishlaridagi ohangdorlikni saqlab qolishga harakat qiladi. Uning fikrlari jo‘sib, uyg‘unlashib boradi.

Qishloq ko‘rinishlari sochmasida esa shoir tabiat manzaralarini xalq dididagidek jozibali, sodda, ravon tarzda ifodalashda o‘xshatish, sifatlash kabi vositalardan juda o‘rinli foydalangan. Shoir bu sochmasida quyoshni erka qizga, uning nurini esa zar kokilga o‘hshatadi.

Mirtemir lirik she'rlaridan tashqari bir qancha dostonlar ham yaratgan. „Bong“, „Barot“, „Agronom“, „Jang“, „Xidir“, „Nomus“, „Ajdar“, „Ochlar o'lkasida“, „Suv qizi“, „Dilkusho“, „Oysanamning to'yida“, „Qozi“, „Farg'ona“, „Baxshining aytganlari“, „Daryo boyida“, „Surat“, „Lenin va Rajab bobo“, „Pattining hasratlari“, „Yuz bir“ singari yigirmatacha katta-kichik doston Mirtemir qalamiga tegishli.

Shoirning „Dilkusho“, „Qozi“ dostonlarida xalqning o'tmishi obrazi tarzida aks ettirilgan. „Dilkusho“ dostonida amir qurboni bo'lgan yosh qizning fojiali taqdiri ko'rsatilgan.

Mirtemir dostonlarining aksariyati zamonaviy mavzu tasviriga bag'ishlangan. „Nomus“, asarida yoshligida ota-onasidan yetim qolib, nihoyatda qynalgan va oqibatda bezorilik-o'g'rilik yo'liga kirib qolgan Ashur ismli yigitning qayta tarbiyalanishi, vijdonli halol kishi bo'lib yetishishi hikoya qilingan. „Oysanamning to'yida“ dostonida esa qoraqalpoq qizi Oysanamning mehnatdan baxt topgani tasvirlangan.

Mirtemir dostonchiligining cho'qqisi, shubhasiz, „Surat“ nomli lirik qissadir. U hayotiy timsollar asosida yaratilgan. Ma'lumki, Mirtemir 30-yillar boshida asossiz hibsga olinib, Moskvadagi Dmitrov lageriga surgun qilingan, Moskva-Volga kanali qurilishiga jo'natilgan. Shoirning xotini ikki yashar qizchasini tashlab Moskvaga ketib qolgan. Qizcha esa tezda vafot etgan. Bu qayg'uli voqeа Mirtemirning pok qalbini alg'ov-dalg'ov qilgan. „Surat“ dostoni ana shu hayotiy fojiya asosida yaratilgan.

Dostonda ikki yillik ayriliqqa bardosh berolmay ahdini buzgan beburd kelin hamda bevafo yor dardida kuyib yongan, ishq jabrini tortib ruhan iztirob chekkan, beg'ubor sevgi sohibi bo'lgan yigit turmushidan olingan tuyg'ular tug'yoni inson qalbini larzaga soladigan darajada hayajonli va yorqin aks ettirilgan. Shu orqali hayot va inson qismati, sadoqat va xiyonat haqida teran poetik mushohada yuritilgan.

„Surat“ dostonida shoir lirik qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy olamini yaqqol tasvirlab bergan. Asarda ruhiyat tasviri, tabiiylik va samimiylilik bo‘rtib turadi:

Na oltin, na javohir edim,  
Armonli bir yosh shoir edim.  
Zuhro bo‘lmasang ham chiroyda,  
Men ishqingda naq Tohir edim

Toshlon o‘ldi,degan kim axir?  
Gulday so‘ldi,degan kim axir?  
Nahot poymol qutlug‘ ishq ahdi  
Bol bo‘lurmu shunchalar taxir?

Barchinoyday kutganing qani?  
Zardobu qon yutganing qani?  
Umr yo‘lida to yumguncha ko‘z  
Birga-birga ketganing qani?

Gunohim ne? - Jangda bo‘lganim,  
Qon kechganim, yuz bor o‘lganim.  
Diydoringni unutolmayin,  
O‘limlardan hatlab ketganim...

Lirik qahramon suratga tikilib, undan muhabbatiga vafo va sadoqatni so‘roqlaydi. Uning qo‘ynida to‘rt yil asralgan surat esa jim. Undan ko‘zlar qiyg‘och, sochlari sumbul, tarqoq, zap qiyilgan qalam qoshli go‘zal beun boqadi. Uning ko‘zlarida bevafolik nash’asi o‘zini namoyon qiladi. Qalbi o‘ksigan yigit „Evoh, qanday zil yuk bo‘ynimda, Seni asrab to‘rt yil qo‘ynimda...“ - deya beun, sassiz faryod chekadi:

Ham nafratim, ham ayanchim bor,

Yurak - ikki dardga mubtalo.  
G‘amzalar... oh, bekor-ku, bekor...  
Qayta og‘ir bo‘ldi bu balo!  
Ko‘rmay desam, ko‘zim ko‘r emas,  
Yurmay desam, oyog‘im butun,  
Ammo yurak ortiq jo‘r emas,  
Xayollarga bo‘laman tutqun.

„Surat“ og‘ir hayot yo‘lini kechirgan, „o‘lkalar hatlab“ o‘tgan, urush olovida toblanib ulg‘aygan kishining qalb nidosiday jaranglaydi. Bundan tashqari, qoraqalpoq hayotiga bag‘ishlangan "Amu q’irg‘oqlari", „Oysanamning to‘yida“, asarlarini yaratadi.

Uning „Suv qizi“ dostonini ko‘radigan bo‘lsak, bu asar 1937 yili Yalta shahridagi oromgohda yozilgan. Hordiq chiqarayotgan shoir mahalliy fuqarolardan Qora dengiz qirg‘og‘iga o‘rnatilgan Suv parisi haykali bilan bog‘liq qrim xalq afsonasini tinglaydi. Bu mungli afsona juda ko‘p millatga mansub shoirlar qatori Mirtemir xayolida ham ijodiy bezovtalik sodir etadi va pirovardida 272 misralik doston vujudga kelgan.

„Suv qizi“ da Mirtemir afsona voqealarini boshlashdan avval olti band (yirik to‘rt misralik) muqaddima keltiradi. Unda hikoyachi lirik qahramon obrazi gavdalantiriladi. Hikoyachi „Yulduzlarga charag‘on kecha“da yolg‘iz yurib buloq boshiga boradi va tong yorishguncha suv qizini kutadi. Ammo unga suv qizi bilan uchrashish va „qayg‘uli qissa“ tinglash keyingi oqshomda nasib etadi.

Mirtemir talqinida asarning bosh qahramoni Orzu – kambag‘al bog‘bon cholning suluqlikda tengsiz yolg‘iz qizi. Uning husni ta’rifi eldan-elga dengiz osha ketgan. U har tong tog‘dan quyiga, buloq bo‘yiga tushib, kelajagi haqida o‘y suradi, ko‘ngil qo‘ygan „o‘ktam chavandoz, tanti yigit“ to‘grisida xayol suradi. Ammo, dengiz ortidan kelgan sovchilar uning ota-onasini rozi qilishib, Orzuga fotiha o‘qishib qalin molini tashlab ketishadilar.

Orzu buloq bo‘yidan uyiga qaytayotganida dengiz ortidan sultonning „g‘addor berahm“ malayi Ali bobo changal solib qochib ketadi.

Qattol sulton asirasi „Orzu saroyda “oy kuni to‘lib“ bir qiz tug‘adi. Ammo, ozodlikka,tug‘ilib o‘sigan vataniga,ota-onasi va sevgilisiga intizor bo‘lgan yosh ona tug‘ilgan zahoti bu razolat uyasidan qutulishga intiladi.

Qizginani bosdi bag‘riga,  
Tun yarmidan o‘tgan chamasi.  
O‘zni otdi dengiz qa’riga  
Bechora qiz o‘zini otdi.  
Minoraning qoq tepasidan  
Jimjit ketdi, suvlarga botdi,  
Qaytib chiqmay dengiz ortidan.

Asar davomida izsiz yo‘qolgan Orzuni qo‘msab, kechasi buloq bo‘yiga kelgan oshiq yigit suv ichidan bola ko‘tarib chiqib kelayotgan ayolni ko‘rib to‘qayga qochadi. Shundan beri „har yili bahor g‘uncha ochganda“ suv parisiga aylangan Orzu qizchasini ko‘tarib dengiz qa’ridan buloq bo‘yiga chiqib o‘tirar ekan.

Ko‘rib o‘tganimizdek, Mirtemir syujet va kompozitsiyasini to‘la saqlagan holda qrim folklori namunasiga o‘zining individual fantaziyasini omuxta qilib, adabiy ertak yaratgan. Bunday omuxtalik doston-ertakning tilida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Afsonaning mazmuni yozma adabiyotdagi lirik tuyg‘ular bilan uyg‘unlashadi.Fikrimiz dalili uchun ritorik so‘roqli quyidagi misralarni olib ko‘raylik.

Nega uning qo‘ynida bola.  
Nega chiqdi dengiz ostidan.  
Nega yig‘lar, nega bu nola.  
Ranjishlari kimning dastidan.

Ayonki, kechinmalarning bu tarzda ifodalanishi faqat yozma adabiyotga xosdir.

Shunday qilib, Mirtemir qrim xalqi to‘qigan afsonani ijodiy rivojlantirgan holda yangi doston yaratib, folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi munosabatlarning rivojiga munosib hissa qo‘shgan edi. Bu asar xalq

donishmandligi namunasi bilan sug‘orilganligi uchun ham bugungi kunda o‘z ahamiyatini yoqotgan emas, hamda kitobxonning ma‘naviy talablari uchun xizmat qila oladi.

Shuningdek, birgina „Suv qizi“ misolida emas, shoirning fusunkor, latif, donishmandona she‘riyati xususida ham bu fikrlarni ham aytish lozimdir.

## **II BOB. MIRTEMIR SHE'RIYATIDA BADIY MAHORAT**

### **Mirtemir she'riyatining badiyati, o'ziga xos xususiyatlari**

Lirik she'riyat shoir qalbining kundaligidir. To'g'ri, lirik she'riyatning bu qoidasiga hamma shoirlar ham rioya qilavermaydilar. Lirik she'riyat shoir qalbining kundaligi bo'lishi uchun shoirda lirik iste'doddan tashqari, samimiylit, o'z ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlarni, ruhiy hayotining to'lqinli holatlarini haqqoniy aks ettirish, tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan voqealami o'z yuragidan o'tkazish madaniyati bo'lishi darkor.

Mirtemir, ayniqsa, urushdan keyingi davrlarda lirik kechinma tasviriga katta e'tibor berib, ajoyib lirik durdonalar yaratdi.

Mirtemirning 70-yillarda yozgan she'rlaridan biri „O'zim bilaman...“ deb nomlanadi. Shoir bu she'rda ifodalangan mazmunni pardalash maqsadida sarlavhadan keyin. „Tagorga ergashib...“, deya she'iga izoh bergan. Bu she'r 1974- yilda yozilgan va Mirtemirning Moskvadagi mehnat-tuzatuv lageriga etap qilib yuborilgani va Sovet davlati qatag'on siyosatining dahshatli manzaralariga guvoh bo'lganiga shu yili qirq yil to'lgan edi.

Shuni aytish kerakki, jahon adabiyotida ham, o'zbek she'riyatida ham shunday asarlar borki, mualliflar bu asarlarda o'z hayotlari bilan yoki o'zлari ishtirokchisi bo'lgan muhim voqealar bilan bog'liq sirlarni qandaydir „shifrlangan“ obrazlar va so'zlar yordamida yifodalaganlar. Cho'lponning „Kleopatra“ mansurasi yoki „Raqamlik sevgi“ she'ri shunday asarlar jumlasiga kiradi. Mirtemir ham ushbu she'rda ana shunday usuldan foydalangan:

Qulog'imda yangrar doim bir nido,  
Xo'rsinaman, ko'z yoshimni silaman.  
Shu nidoga ne sababdan jon fido —  
Bitta o'zim bilaman.

She'r shunday satrlar bilan boshlanadi. Bu satrlarda shoir nimani, kimni, qanday nidoni nazarda tutmoqda? Nega qulog'ida yangrayotgan bu nidodan xo'rsinib, ko'z yoshlari silib oqmoqda?

Va nega u, mayli, shoirmi yo uning lirik qahramonimi, bu nidoga jonini

fido qilmoqda? Bu savolga aniq javob berish oson emas. Bu satrlarda shoir hayotining siri yashirinib olgan.

Lekin bizga shu narsa ma'lumki, shoir Toshkentdagi mehnat- tuzatuv lagerida bo'lganida onasi og'ir kasallikka chalinib, vafot etgan. U chalingan kasallik yuqumli bolgani uchun doktorlar ona jasadini maxsus qabristonda yashirin ravishda dafn etganlar. Mahbuslikda yashayotgan, onasining dafn marosimida ishtirok eta olmagan va hatto uning qabri qayerdaligini bilolmay qolgan shoir butun umr bo'yi armonning zaharli suvini ichib yashagan. Ehtimol, shoirning qulog'i oldida farzandini ko'ra olmay, hayotdan „dod“ deb ketgan ana shu onaning nidolari yangrab turgandir. Butun umri davomida „onaginam“, deb faryod chekib o'tgan shoirning boshqa har qanday nidoga jonini fido qilishi mumkin emas.

She'rning ikkinchi bandida ifodalangan fikr-tuyg'ular ham bizning ana shu taxminimizning to'g'riligini tasdiqlagandek bo'ladi.

She'rning uchinchi bandiga kelib, mavzu an'anaviylashadi, she'rga shoiming orzu-umidini o'zida mujassamlantirgan mavhum bir obraz kirib keladi. Shoir yozadi:

Oylar o'tar, tonglar o'tar, umr o'tar,  
Olislarni ko'zlab-ko'zlab jilaman.  
Mening qalbim kimni kutar, qon yutar —  
Bitta o'zim bilaman.

Shoir bu siymoni ko'klam kabi kutishini, uning kelishiga umidvor ekanini aytadi, hatto „*Umidvorman, ishonmay ne qilaman?*“ deydi u. Xo'sh, bu satrlarda ifodalangan kimsa kim bo'ldi? Onami? Uning tirilib kelishimi? (Eslang: „*Dunyoga qaytib kelishimga ko'zim yetsaydi... Jon bergen onamni ko'rishimga ko'zim yetsaydi...*“) Yo'q, onaning tirilib kelishini kutish oqillik belgisi emas. Unday bo'lsa, kim? Sohibjamol yormi? Yo'q. Yoshligimi? Ehtimol...

She'rni o'qir ekansiz, ana shu tarzda o'zingizga o'zingiz savol berasiz-u, javob berishda o'ylanib qolasiz. Umuman, yuksak she'riyatning vazifasi sizga ikki karra ikkining to'rt bo'lishini aytish emas.

She'r sizning fikr va tuyg'ularingizga g'ulg'ula solishi, o'ylatishi, hayratlantirishi lozim.

Mirtemiming lirik she'rlari orasida muhabbat mavzusiga bag'ishlanganlari oz emas. Ammo bu she'rlarning aksarida, xuddi mumtoz she'riyatdagi kabi, umumlashgan, muayyan qirralardan xoli bolgan an'anaviy, yana aniqroq aytsak, kitobiy yor obrazi tasvirlanadi. Shu kabi she'rlar orasida yor obrazi ozgina bo'lsada, aniq-tayin sifatlar kasb etgan „Men seni...“ singari she'rlar ham bor.

„*Seni injitmayman Va lekin tinchitmayman...*“ satrlari bilan boshlanuvchi bu she'r 1960- yili Qирг'изистонда yozilgan. Bu she'rning badiiy jihatlariga nazar tashlashdan avval uning ijodiy tarixiga to'xtab o'tish joiz.

1960-yilda qardosh yozuvchilar o'rtasida adabiy aloqalarning yaxshi yo'lga qo'yilgani bois Mirtemir qирг'из yurtiga borib, qardosh yozuvchilarning mehmoni bo'lган va shu yerda o'zining „Qирг'из she'rlari“ turkumini yoza boshlagan. O'zbekona tanti tabiatli shoir biror joyga garchand mehmon bo'lib borgan bo'lsada, ko'proq mehmonlarga dasturxon yozish va ular ko'nglini olishni sevgan. Bunday paytlarda shoirning sayohatga birga borgan xotiniga aslo tinim bo'lman...

„*Men seni injitmayman Va lekin tinchitmayman...*“ Bu so'zlar bilan boshlangan she'r shoirning xotini Yorqinoyga, turkistonliklar tili bilan aytganda, To'rash kelin oyiga bag'ishlangan.

Hozirgina ko'rganimizdek, she'rning asosiy qismi yetti hijoli satrlardan tashkil topgan. Ammo o'qtin-o'qtin she'riy oqimga o'n to'rt hijoli satrlar ham kirib keladi. Garchand bu satrlar ham yetti hijoli turoqlardan tashkil topgan esa-da, fikr va tuyg'uning tugal holga kelishi va qofiyalanish tartibiga ko'ra, yetti hijoli she'riy nutqning davomi bo'la olmaydi. Bu o'n to'rt hijoli satrlar shoir tuyg'ularining favvorasi o'laroq otolib chiqadi va o'ziga xos lirik kechinma vazifasini o'taydi.

Yuqorida keltirilgan satrlardan keyin fikr va tuyg'u to'lgini bunday mavjlanib ketadi:

Charx urib, bo'z to'rg'ayday bo'zlashim bor boshingda,

Ey, sochlari to‘lqini tun singari sim-siyoh.

Xol kabi paydo bo‘lgum yonog‘ing yo qoshingda,

Ey, izlari g‘ubori ko‘zlarimga to‘tiyo...

Yorni ulug‘lovchi yetti hijoli yengil va jo‘sinqin satrlardan keyin muhabbat tuyg‘ularining bunday po‘rtanasi she’riy oqimni to‘lqinlantirib yuboradi. Bu hol shoir yoki lirik qahramon qalbidagi tuyg‘ulami yanada baland pardada ifodalash imkonini beradi. „*Charx urib, bo‘z to‘rg‘ayday bo‘zlashim bor boshingda*“ satridagi **b** va **z** alliteratsiyalari xuddi lirik qahramonning bo‘zlayotgan holatiga jo‘rlik qilayotgandek tuyuladi. Keyingi: „*Ey, sochlari to‘lqini tun singari sim-siyoh*“ satridagi **s** tovushi **bo‘z** so‘zidagi **z** tovushining so‘nib borayotganini anglatsa, / tovushining, yot kishilar nazaridek, oraga suqilib kirishi bilan lirik qahramon bo‘zlashdan to‘xtaydi.

Endi bu banddag'i so‘nggi satrga e‘tibor bering: „*Ey, izlari g‘ubori ko‘zlarimga to‘tiyo...*“ Bu satrda shoir yorni baland pardada ulug‘labgina qolmay, o‘zini yoki lirik qahramonni ham yor qadriga yetuvchi, uni ilohiyashtira biluvchi inson, yuksak ma’naviy olam sohibi sifatida namoyish etadi.

She‘rni o‘qir ekanmiz, yor va lirik qahramon obrazlari yonma-yon gavdalanishda davom etadi. Agar yor lirik qahramon yoki shoirning unga bo‘lgan munosabati orqali o‘zining munawar qirralarini namoyish etsa va tobora yuksalib borsa, lirik qahramon yorga bo‘lgan o‘ta madaniy munosabati bilan bizda hurmat tuyg‘ularini uyg‘otadi.

O‘tgan asrning o‘rtalarida o‘zbek shoirlari xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rniga, surat va siyratlariga e‘tibor qarata boshladilar. Zulfiyaning „Paranjili ayol bilan uchrashuv“ maqolasidan keyin xotin-qizlarning ildamlab ketayotgan davrdan orqada qolayotganlari, ijtimoiy hayotdan uzilganlari ma’lum bo‘ldi.

„Xotin-qizlar masalasi“ jamiyatning og‘riqli nuqtalaridan biri bo‘lib turgan vaqtida Mirtemir respublika bo‘ylab qilgan ijodiy safarlarining birida parda yopinib yurgan ayollami ko‘rib, o‘zining she’rini yaratdi. Shoir shu ayolga bag‘ishlangan she’rini gina-qudurat bilan, zamonning ilg‘orlab ketgani haqidagi safsataga yaqin gaplar bilan emas, balki samimiyl so‘zlar va samimiyl tuyg‘ular

bayoni bilan boshlaydi:

Seni izlab keldim... Sog'inganman-da.

Esingdami bahor, beg'ubor kunduz,

O'yamagan joyda bo'ldik yuzma-yuz...

Bu satrlarni o'qir ekansiz, shoirni she'rda tasvirlangan ayol bilan ilgaridan tanish bo'lgan, deb o'ylaysiz. Yo'q, shoir (she'rning lirik qahramoni) yurtimiz shaharlarining birida ketayotib, uni ilk marotaba ko'rib qoladi. Ayol yuziga parda tutgan holda beparvo borardi. Ammo shu payt „qadimdan tegajoq, shaydoi shamol“ daf'atan esib, ayolning yuzidagi pardani ko'tarib yuboradi. Lirik qahramonning ko'zлari esa bu nodir go'zallikni ko'rib qamashadi:

Bir nafas ko'zingga tushdi ko'zginam,

Hayhot, u ko'zлarda hayrat, qora cho'g‘,

Yo'q, u ko'zлar cho'g‘i nogahoniy o'q...

Bir zum turib qoldim behushday men ham.

Sendaqasin sira ko'rmagan edim

Na qadim Samarqand, na Turkistonda,

Na bedor o'qigan yuzlab dostonda...

Shoir bu parda tutgan sohibjamol ayolga ta'na toshlarini otmaydi, balki uning go'zalligidan olgan taassurotini, uning ustidagi kiyimlar-u zebi zargaronlarning yarashganligini tasvirlashda, ya'ni sharaflashda davom etadi. Kutilmaganda, ustiga o'sha kezlarda jamiyatning malomat toshlari yog'ilayotgan ayol Mirtemir she'rida, xuddi Petrarka yoki Shekspir sonetlarida kuylangan ayol singari, viqor to'la qiyofasi bilan gavdalanim, biz, kitobxonlarni ham maftun eta boshlaydi:

Yo'q, bu bezaksiz ham tengsizsan, tengsiz.

Ha, sen bezaksiz ham shundoq suluvsan,

Sen bahorgi tushsan, buloq suvisan,

Bundaqa chiroyga arzir cho'ksang tiz...

Cho'lpox 1919- yilda, xuddi Mirtemir singari, sohibjamol bir qizni tasodifan ko'rib qolib, o'zining eng latif she'rlaridan biri – „Go'zal“ she'rini yozgan edi.

Mirtemirning bu she'ri ham ana shunday oniy uchrashuvning abadiy yashaydigan she'riy suratidir.

She'rning lirik qahramoni „asov jayronday“ bir zumda g'oyib bo'lган go'zallikni yana ko'rishni istab, „Qaydasan, suluv?“ deb so'roqlaydi. Ammo shu lahzaning o'zida o'zbekona madaniyati tutib, unga bunday so'zlarni yo'llaydi:

...Yo'q, hayotdan haqing ol, demoqchiydim.

Yorqin shu yillarning solim bog'ida,

Yorqin erta kunning tongi chog'ida

Sen ham erka bir soz chal, demoqchiydim...

Mirtemirning bu she'ri garchand tirik go'zallik bilan tasodifiy uchrashuv natijasida, hali taassurot olovi sovimagan bir paytda yozilgan esa-da, har bir so'z va har bir poetik obraz o'zining ohori to'kilmagan ranglari bilan tovlanib turadi. Shoir **a-b-b-a** tarzida qofiyalangan band tizimiga butun she'r davomida rioya qilib, faqat his-hayajonda sodir bo'lган o'zgarishni ko'rsatish niyatida ikki o'rinda vaznni „kesib“ tashlaydiki, bu shoirning sevimli badiiy usullaridan biridir.

Boshqa shoirlar singari, Mirtemirning she'rlari ham turli omillar ta'sirida tug'ilgan. Ba'zan shunday bo'ladiki, biror kishining yo joyning nomi shoirga bir olam ilhom bag'ishlab, uni she'r yozishga undaydi.

Qarqara Qozog'istonning Qarag'anda viloyatida joylashgan shahardir. Shoir Qozog'istonda o'zbek adabiyoti haftaligi o'tgan 1962-yilning may oyida shu antiqa ismli manzilda ham bo'gan. Shu joyning g'aroyib va turli qofiyalarga esh nomi shoirga, ayniqsa, manzur bo'lgani sababli u qarqaralik qizga bag'ishlab she'r yozgan va bu she'rda "qarqara" so'ziga ohangdosh turli-tuman so'zlarni qofiya sifatida keltirib, o'zini qofiya ustasi sifatida namoyish etgan. To'g'ri, shoirning maqsadi o'zining qofiya topish borasidagi iste'dodini ko'z-ko'z qilish emas. Ammo: "She'rda biror so'zni o'ynata olmagan shoir shoir emas", degan so'zlarni tez-tez takrorlovchi Mirtemir bu she'rda „qarqara“ so'zini, xuddi sirk artisti singari, „o'ynatib yuborgan“.

Qarqaralik, qaydin kelding qoshimga,

Qaydagi savdoni solding boshimga.  
 Qaydagi savdoni solsang boshimga,  
 Qota ko`rma qatron mening oshimga!  
 Qosh ustiga qo`ndiribsan qarqara,  
 Qora soching qora tunda sharshara,  
 To`lqinida koshki o`zim cho`milsam...  
 Shaydoyingman gar qarama, garqara.

Bu va keyingi satrlar garchand qarqaralik qizga shaydolik hislari bilan to`yingandek tuyulsa-da, aslida ushbu she`r uchun bu hislar emas, balki „qarqara“ bilan bog`liq so`z o`yinlarining, bayram kechasidagi mushaklar singari, porlab va tovlanib turishi muhimdir. Lirik qahramonning qarqaralik qizga shaydoligi ham shu o`yinning bir qismini tashkil etadi.

Mirtemir ijodining fazilatlari ko`p. Ana shuning uchun ham G`afur G`ulom: „Mirtemirning she`rlarini o`qisam yayrab ketaman. U shoshilmay, erkalanib yozadi“, -degan edi.<sup>1</sup> Bu she`rda Mirtemir she`rlariga xos bo`lgan ana shu g`aroyib fazilat-shoirning erkalanib yozishi, lirik qahramonning erkalangan bir holda gavdalanishi yorqin ko`rinadi. Quyidagi satrlarda bu hol yanada yaqqol ko`rinadi:

Qarqaraning o`rdagi-yey, g`ozi-yey,  
 Yozlari-yu kuzlarining sozi-yey.  
 Yo „ha“si bor, yo „yo`G`i“ bor, ne bilay,  
 O`rtavordi qarqaralik nozi-yey.

Sovet davrida yashagan shoirlar ijodida bunday lirik zam- zamalarni ko`p, deb bo`lmaydi. Davr va shu davming tanqidchiligi dam-badam shoirlardan „grajdanlik she`riyati“ namunalarini yaratishni talab etib turdi, „sof lirika“ namunalari burjua lirkasi sifatida qoralandi. Shuning natijasida sovet davrida yaratilgan qanchadan-qancha she`r va dostonlar adabiyotimiz g`alviridan tushib qoldi.

---

<sup>1</sup> Said Ahmad.Nazm chorrahasida.-T.:”Yosh gvardiya”, 1982, 16-bet

Bu she'r o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishidan 15 yil avval yozilgan. Binobarin, aytish mumkinki, Mirtemir o'zbek tiliga umumxalq va umumdavlat miqyosida katta e'tibor berish, uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish lozimligini o'sha vaqtdayoq yurakdan his etgan. She'rning har bir satrida shoirning ona tiliga bo'lgan shunchaki muhabbat emas, balki ona tilining qadriga yeta olmayotgan kimsalarga, hatto zamonga bu tilning tarixan qadimiyligini, boyligini, xalqning tarixi va taqdiri bilan chambarchas bog'liqligini tushuntirish istagi sezilib turadi.

Ona tilim — onajonim tili bu,  
Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.  
El-u yurtim, xonumonim tili bu,  
Qadimlikda o'xshar ona tuproqqa...

She'r ona tilini tavsiflovchi shunday umumiyo so'zlar bilan boshlanadi. Ammo debochadan keyin she'rning vazni, ohangi, qofiyalash tamoyili ham o'zgaradi va shoir yuqorida bayon qilingan haqiqatni tarix qatlamlaridan olingan misollar bilan isbotlashga kirishadi:

Yobonlarning cheksizligi,  
Ham samumi, ham hovuri Onajonlar allasidan,  
Ko'z yoshidan, oq sutidan;  
Jilg'alarning sho'x g'ovuri  
Yigitlarning yallasidan,  
Suluvlarning sukutidan — Yo'g'rilgan til —  
Ona tilim...

Mirtemir ona tilining paydo bo'lish va shakllanish tarixini ana shunday kuzatishda davom etadi va o'zbek tilining hozirga qadar bosib o'tgan tarixiy yoiining o'ziga xos poetik manzaralarini gavdalantirib beradi.

Chamasi, shoir ona tili bilan bog'liq barcha dard-u armoni, g'urur va sururini bayon etishga, ifodalab qolishga uringan. Shuning natijasida u o'zbek she'rriyatida nisbatan kam uchraydigan sakkiz hijolik barmoqdan tashkil topgan she'rning bu birinchi qismidan keyin o'n to'rt hijolik barmoq vazniga ko`chgan. Ammo shoir

shu vazn doirasida ham his-tuyg‘u va fikr to`lqinlarining taqozosi bilan she’r shakliga erkin munosabatda bo‘ladi.

Umuman, Mirtemir hali o‘zbek jamiyatida o‘zbek tili bilan faxlanish tuyg‘usi uyg‘onmagan bir paytda Navoiy va Boburlar tiliga mehr va hurmat tuyg‘ularini tarbiyalashga intilganki, ushbu she’ming ahamiyati, birinchi navbatda, shu narsa bilan belgilanadi.

Mirtemir uchun ona, vatan, xalq—mavhum tushunchalar emas. Uning uchun har bir vatandoshi, har bir qardoshi— aziz kishilar. Mirtemir ijodida xalqlar o‘rtasidagi do‘slik g‘oyalarining tarannum etilishi sovet davrining talabi bilangina ro‘y bermagan. Uning “Qoraqalpoq daftari”, „QirG‘iz she’rlari“ singari turkumlariga kirgan she’rlar bilan tanishish bu fikrning tasdiqlaydi.

Mirtemir tabiatan bag‘rikeng, saxiy, tanti inson sifatida doim atrofidagi yosh shoirlarga maslahat berib, mehr-muruvvat ko‘rsatib keldi. U, ayniqsa, Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo‘lgan yillarida o‘z atrofiga talaygina yosh shoirlarni to‘plab, ularning ijodiy ulg‘ayishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Shoir bu yosh qalamkash do‘sstariga bag‘ishlangan „Kipriklarim“ she`rida (1960) ularni, adabiyotimiz baxtiga, ko‘z qorachig‘idek asrash g‘oyasini ilgari surdi.

Mumtoz o‘zbek she‘riyatida kiprik, odatda, ayol go‘zalligini tasvirlashda poetik obraz sifatida qo‘llanib kelgan. Mirtemir Sharq mumtoz adabiyotining bu doimiy poetik obrazlaridan biriga mutlaqo o‘zgacha g‘oyaviy yuk bag‘ishladi. U o‘zi parvarishlab o‘stirayotgan ijodkor yoshlarni kipriklarim deb atadiki, natijada kiprik poetik obrazi an’anaviy obraz darajasidan ko‘tarilib, yangi zamonaviy mazmun bilan sug‘orildi.

Modomiki, shoirning „Kipriklarim“ she`rida kiprik obrazi bor ekan, demak, mantiqqa ko‘ra, ko‘z obrazi ham tasvir etilishi lozim.

Shoir yozadi:

Quyunlarda qolganimda, changga o‘ralganimda,  
Ohangaron to‘zonidan zanji qoralganimda,  
Yoki yaxshi timsol izlab, changday taralganimda,

O‘zbekiston tonglarini bedor kutgan ko‘zlarim,  
Tengsiz tonglar falsafasin tashna yutgan ko‘zlarim...

Bu, oddiy ko‘zlar emas, balki shoirning ko‘zлari, „tonglar falsafasi“ ni yutuvchi ko‘zlardir.

Mirtemir she‘rda ana shu shoirona ko‘zlar tasvirini davom ettirib, bunday mantiqiy xulosaga keladi:

Ko‘zlarimga chegarada shay askarday qo‘riqchi,

Ko‘zlarimga olis Bobur g‘ussasiday yo‘riqchi,

Ey, aziz kipriklarim.

Sergaklikda tiriklarning siz-ku eng tiriklari...

Kiprigimday azizlarim, nechog‘lik ham suyuksiz.

Armonimday buyuksiz!

Ota yoki ona o‘z farzandini kiprikka muqoyasa qilishi mumkin. Mirtemir ham bir guruh yosh shoirlar avlodiga tom ma`noda ustozlik qilgani uchun ularni ”„kipriklarim“ deb atagan. Bu obraz zamirida shoirning „kipriklar“ siz ko‘zlarim uzoq- yaqinni yaxshi ko‘ra olmasligi mumkin, degan ajoyib bir fikri, izhori dili yotadi.

### **Shoir she‘riyatida yetakchi motivlar**

Mirtemirning 30-yillardagi she‘riyatining muhim hususiyatlaridan biri shundaki, shoir tabiatni juda nozik his etgan holda asar g‘oyasini ochishda tabiat tasviridan san‘atkorona foydalanadi. Muhim hayotiy g‘oyalarni peyzaj tasviri asosida ifodalaydi. Bu hususiyat shoirning „O‘ylar“, „Qizg‘aldoq“, „Qoya“, „Seni, bolaligim“, „Hayr, Toshkent“, „Lolazordan o‘tganda“, „Achchisoy“, „Yashil yaproqlar“ kabi she‘rlarda peyzaj tasviri asar g‘oyasini badiiy ifodalashga, lirik qahramoning kayfiyati, ruhiy kechinmalarni ochib berishga xizmat qiladi:

Yondiradi dalalarning qo‘ng‘ir to‘shlarini  
Olovlangan,o‘tday yongan iyul quyoshi,  
Vodiylar uzra yoyib marmar kulishlarini  
Oqarib ko‘rinadi tog‘larning boshi.

To‘qaylar soch taraydi yelda to‘lg‘anib,  
Cho‘qqilarda sakrashar olqor,ohular...  
Tog‘larning etaklarida shu'lalar yonib,  
Tovlanib oqadi shishaday suvlar...

(„Xayr Toshkent“)

Mirtemir o‘z she‘rlarida tabiat tasviridan obraz yaratish va asar g‘oyasini ifodalashda asosiy material sifatida foydalanadi. Shu sababli daf‘atan qaraganda tabiatning quruq tasviridan iborat bo‘lib tuyuluvchi „Seni, bolaligim“, „Kuz“ kabi she‘rlarida ham hayotni, Vatanni sevish g‘oyasi „yashirinib“ yotadi.

Mirtemir ikkinchi jahon urushi yillarida yaratgan asarlarida ham manzara tasviri orqali hayotbaxsh fikrlar ifodalangan. Uning „Bu-mening Vatanim“, „Qirg‘oq“, „Vafo“, „Dengiz boylarida“ kabi she‘rlarida yurt chiroyi, hayot go‘zalliklari tarannum etiladi. Shu sababli bu sherlar o‘quvchida Vatanni dushmandan himmoya qilish uchun g‘ayrat va shijoyat tuyg‘ularini uyg‘otadi. Agar 20-30-yillarda Mirtemir she‘riyatida asosiy o‘rinni yangi hayotni qutlash, yer-suv islohati, xotin-qizlar ozodligi kabi mavzular egallagan bo‘lsa, urush yillarida asosiy o‘rinni harbiy-mudofaa mavzusi ishg‘ol etdi. Shoир Vatanga muhabbat chaqiriq, g‘alabaga ishonch yonaloshlarida qator yetuk badiiy asarlar yaratdi.

Mirtemir „Men ona bo‘sam agar“, „Sen - ona!“, „Bu –mening Vatanim“, „Ona shahar“, „Hamshahar“, „O‘ch“, „Qirg‘oq“, „Hamshira“ singari she‘rlarida ham front va front ortidagi jangovar hayotni samimiyat bilan aks ettirgan.

Mirtemirning harbiy lirkasi tom ma‘nodagi jangovar, xalqchil lirkadir. Shoир xalq ommasini qiziqtiradigan, hayajonga soladigan tuyg‘ularni xalqona soda, lekin teran tarzda ifodalangan. Bunda u xalq qo‘sishlarining mazmuni va shaklidan, onli til boyliklaridan ustalik bilan foydalangan. Shunga ko‘ra shoир to‘qigan ko‘pgina baytlar xalq maqollari va hikmatli so‘zlari darajasida turadi. Mirtemir „O‘ch“ she‘rida jangchilarni fashistlardan qasos olishga undar ekan, xalq hikmatlariday aks sado beruvchi baytlar yaratgan:

Omon qolgan bitta ablah-  
Bir qishloqning yonishi!  
Omon qolgan bitta ablah-  
Ofatning sog‘ qolishi.

Mirtemirning harbiy lirkasi-yangi fikr va obrazlarga boy. Chunonchi, u “Sen ona” she‘rida an’anaviy mavzuga urush davri talablari nuqtai nazaridan yondashib, onaning yangi obrazini yaratgan. Shoir onalar haqida shu kungacha aytilmagan, lekin aytilishi kerak bo‘lgan teran poetik fikrni topib, uni she‘riy tilda mohirona ifoda etgan.

Shunday qilib, Mirtemir harbiy lirkasi og‘ir yillarda yashagan kishilarda ertangi kunga ishonch, adolatning g‘alabasidan umid uyg‘otishga xizmat etdi.

Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda Mirtemir she‘riyati o‘z taraqqiyotining yangi, yuqori bosqichiga ko‘tarildi. Shoir hayotdagi o‘sish-o‘zgarishlardan zavqlangan va ularni qo‘llab-quvvatlagan holda ko‘tarinki ruh bilan ijod qildi, zamonaviy mavzularda ko‘pgina yetuk asarlar yaratdi.

Mirtemirning bu davrdagi ijodida ham oddiy mehnatkash inson obrazi markaziy o‘rinni egalladi. „Ertangi kun“ she‘rida shoir porloq kelajagimizning buniyodkori bo‘lgan mehnat ahli haqida poetik fikr yuritib, ularni tarixini yaratuvchi, dunyoni o‘zgartiruvchi qudratli kuch deb atadi:

Inson mehnatidan rang olur hayot,  
Inson mehnatidan o‘zgarur jahon,  
Haqiqat tug‘ular xayoldan ham bot,  
Butun kuchlilardan kuchliroq inson...

Bu davrda Mirtemir she‘riyatida xalqlar do‘stligi mavzusi katta o‘rin egalladi. Bundan shoirning o‘zi ham haqli suratda faxrlandi:

Do‘stlik so‘zi – so‘zlarning naqshi,  
Hech so‘z bormi bundan ham yaxshi!  
O‘z yurtimda men ham bir baxshi,  
Umrim kechar do‘stlikni kuylab.

Mirtemir xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni insonga shodlik, kuch-quvvat va po‘lat qanot bag‘ishlovchi hayotbaxsh omil sifatida ta’riflaydi. Darhaqiqat, Mirtemirning „Eli yurt maqtovi“, „Bizga keling“, „Ukrainamsan“, „Qirg‘iziston“, „Qirg‘iz xalqiga“, „Maxtumquli to‘yida“, „Barhayotlik“, ”Qozog‘im“, ”Olmaotaning qishi“ kabi she’rlari o‘zbek sheriyatida xalqlar do‘stligi mavzusida yozilgan eng yaxshi asarlardan hisoblanadi.Ularda xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikning kuchi va insoniyat jamiyatি taraqqiyotidagi buyuk ahamiyati umumlashtirib tasvirlangan:

Tog‘larni ko‘targay do‘stlikning kuchi,  
Do‘stlik kuchi – yangi jahon qurg‘uvchi.

Mirtemir xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni kuylar ekan, har bir respublikaning hayoti, tabiatи, madaniyatи va milliy hususiyatlariga oid xarakterli belgilarni sinchkovlik bilan topadi va ularni aniq maqsadni ko‘zlab ishlatadi.

Shoirning „Qoraqalpoq daftari“ she‘riy turkumini qoraqalpoq xalqining bugungi sermazmun va serqirra hayotini, erishgan ulkan yutuqlarini, orzu-istiklarini haqqoniy ifodalovchi, o‘zbekning o‘z insi qoraqalpoqqa bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbatini tarannum etuvchi, xalqlar do‘stligi va birodarligini ulug‘lovchi she‘riy qissa deb aytish mumkin.Yigirmadan ortiq go‘zal she‘rdan tashkil topgan bu asarda Mirtemirning qoraqalpoq xalqiga bo‘lgan samimiy hurmatl, qon-qardoshlik e‘tiqodli yaqqol aks etgan. Zотан, o‘zbek shoiri Mirtemir qoraqalpoq yurtini o‘z yurti sifatida sevib, ardoqlab tasvirlagan va qoraqalpoq mehnatkashlarining fe‘l-atvori, an‘analari va turmush tarzini maftun bo‘lib kuylagan.

„Qoraqalpoq daftari“ asarida she‘riy turkum janrining o‘ziga xos talablariga to‘liq rioya qilingan, sarlavhaga chiqarilgan umumiy mavzu atroflicha yoritilgan va bu turkumni tashkil etuvchi she‘rlarning ichki mantiq jihatidan o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lishi ta‘minlangan. Turkumdagи she‘rlar – badiiy baquvvat, barkamol. „Qor qo‘msash“, „Ko‘l bo‘yida“, „Kegaylidan“, „Barqut“, „Hodisa“, „Engajon“ singari she‘rlarda chuqur ichki hissiyot tasviri, samimiy va quvnoq humor ufurib turadi.

Mirtemirning hazil-mutoyibadan, xalq yumoridan mohirona foydalanishiga uning „Engajon“ she‘ri ham yaxshi misol bo‘ladi.

Tabiiyki, Mirtemir she‘riyatning bosh mavzusi - O‘zbekiston, asosiy qahramoni esa o‘zbek xalqidir. Shoир O‘zbekiston va o‘zbek hayoti mavzulariga muntazam murojaat etadi va har safar o‘z el-ulusi obrazining yangi bir qirrasini o‘ziga xos usulda mahorat bilan ochib beradi. Yurt jamolidan, odamlar kamolidan quvongan shoир niyat qiladi:

She‘rlarimda jilva qilish zamona,

Yurtim madhi bo‘lsin so‘nggi satrim ham.

Mirtemir niyatiga yetdi. Darhaqiqat, shoирning so‘nggi satrlari ham yurt madhi, ona xalqqa muhabbatu sadoqat tuyug‘usi bilan yo‘girildi. Shoир umrining oxirida yaratgan va „Yodgorlik“ to‘plamiga kiritilgan bir she‘rida butun ongli hayoti davomida xalqqa, yurtga halol xizmar qilganini ichki bir qoniqish tuyug‘usi bilan ifodalaydi. Shu orqali xalqini dildan ulug‘laydi va unga samimiyat bilan ta’zim bajo keliradi:

Xalqim etagida yetdim voyaga,

Xalqim bilan kuldim...

Xalqim deb o‘ldim.

Xalqim nima bo‘lsa, men o‘sha bo‘ldim...

Mening yuragimni teshib o‘tdilar

Xalqimga otilgan talay-talay o‘q.

Qancha yo‘llar bosdim, gohida toldim,

Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard,

Faryod solar choqda jim bo‘la oldim,

Xalqim dardli edi dil o‘rtagan dard.

Mirtemir ona-Vatan-jonajon O‘zbekiston mavzusini yoritishda, o‘zbek xalqi obrazini yaratishda turli xil tashbehlarni, rang-barang san’at va ifoda vositalarini ishlatgan. „Senga, respublikam“, „Bu shundoq yurki,“, „Elu yurt maqtovi“ she‘rlarida shoир emotsional ritorikadan mohirlik bilan foydalangan.

Mirtemir ijodining so‘nggi davri mahsuli bo‘lgan „Onaginam“, „Chanqoqlik“, „Kipriklarim“, „Qirq bir“, „Betobligimda“ kabi she’rlari ham ana shunfay ajoyib she’rlar jumlasiga kiradi. „Onaginam“ she’rida bolaning onaga bo‘lgan so‘nmas mehri, farzandlik burchi haqidagi muqaddas tuyg‘ular xalqona soda, teran, tabiiy va jozibador qilib tasvirlangan. Shu asosda farzandning ruhiy holati va cheksiz armoni ustalik bilan gavdalantirilgan:

Sening arzimas bir yumishingni ado etolmaganim,  
Sening bir ishorangga  
Yuz o‘mbaloq oshib ketolmaganim.  
Seni jindek xushvaqt qilgani,  
Seni jindek xushbaxt qilgani,-  
Tegsiz jarlardan o‘tolmaganim  
Tog‘day zil,  
Abadiyatday cheksiz  
Armon bo‘lib qoldi dilimda,  
Onaginam!

Xullas, Mirtemir she‘rtiyatida xilma-xil hayotiy mavzular, muhim poetik fikrlar lirika torlariga solinib, zamon ruhiga mos ravishda mahorat bilan kuylangan. Binobarin, Mirtemir she‘riyati-tuyg‘ular tug‘yoniga, ehtirosli poetik fikrlarga, jo‘shqin, samimiy va mayin lirkaga boy.

1956 yildan keyin mampakatda yuz bera boshlagan muayan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlsr ta’sirida Mirtemir ijodida ham yangilanish jarayoni boshlandi. Avvalambor, Mirtemir bu davrda juda faol ijod qildi – u bir necha marta tanlangan asarlarini chop ettirdi, uyzlab lirik she‘rlar yaratdi, o‘nlab poetik to‘plamlar e‘lon qildi. Ammo gap, albatta, faqat kitoblarning sonida emas. Muhimi shundaki, Mirtemir she’rlarida bu davrda juda sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. To‘g‘ri bu davrda ham Mirtemir zamonasozlik ruhidagi she’rlar yozishni butunlay tark etgani yo‘q bunday qilolmas edi ham. Har qanday iste‘dodli shoir chin ma‘nodagi poetik asarlarini o‘tkazish uchun mavjud adabiy siyosatga jindek bo‘lsada yon bermoqqa majbur edi. Shu mavzuda yozilgan ayrim she’rlar panasida shoir ko‘nglidan

chiqarib yozilgan asarlarini ham o'tkazib olar edi. Umuman, bu masala ancha murakkab. Masalan, shu yillarda Mirtemir Vatan haqida, uning o'tmishi va buguni, beqiyos tabiat, bitmas-tuganmas boyliklari, har qanday dilni oshufta qilguvchi ranglari haqida ko'plab she'rlar bitdi. Ularda, tabiiyki, o'sha davr an'anasiga ko'ra shoir bu tehgsiz go'zal yurtning bahtiyorligi, erkinligi haqida ham gapiradi. Bugun biz bilamizki, o'sha kezdagi baxt va erkinlik aslida yo'q narsalar ekan. Ho'sh, endi shunga ko'ra bugun biz Mirtemirning o'sha she'rlaridan voz kechmog'imiz kerakmi? Bu o'ta insofsizlik bo'lardi. Negaki, Mirtemirning Vatan haqidagi she'rlarida „mustaqillik“, „Istiqlol“ degan so'zlar bo'lmasada, baribir, shoir odamlarni Vatanni sevishga o'rgatgan. Bu davrda Mirtemir she'riyatida poetik tasvir juda kuchayadi, shoir Vataning betakror go'zalligini juda aniq his qiladi. U faqat go'zal vodiylarda, yashnagan bog'lardagina emas, xalq turmushining har bir buyumida, ona tabiatning har qanday hodisasida Vatan muhabbatiga limmo-lim to'lgan qalb to'lqinlarini jo'shib kuylaydi. Bunda samimiyat shu qadar kuchliki, tasvir shu qadar go'zalki, uni o'qigan kitobxon qalbida ham muhabbat, oshiqlik mavj urmay qolmaydi. Mana, shoir „Qaldirg'och“ she'rida bahor manzarasini qanday tasvirlaydi:

Cheksiz ko'k toqlarida qaldiroq qarsillashi...

Qaldirg'och qaytibdi-da.

Ko'klam quchoqlarida keng olam larsillashi...

Qaldirg'och qaytibdi-da.

Yashil ipaklik kiymish tog' sirtlari, ne-ne bo'z,

Qaldirg'och qaytgani shu.

Kamalak yastanganday er ko'rkin qilar ko'z-ko'z,

Qaldirg'och qaytgani shu.

Mirtemir lirikasida bu davrda fikr yanada tiniqlashadi va teranlashadi, falsafiylikka moyillik kuchayadi. Ko'p she'rlarida shoir „jarangdor qo'shiqqa kamol izlaydi“ – u dunyoning murakkabligini yaxshi tushunadi, inson hamma vaqt ham farishta emas, ba'zan undan yovuzlik o'tlari ham taralishi mumkinligini biladi va go'daklarga xos soddadilik bilan „yovuzlikka jinday ham joy

qolmasaydi, diny bir soz qo'shiqdan zavq ololsaydi“, deya ko'nglidagi armonni izhor qiladi. Mirtemir ko'p she'rlarida inson kamolatini madh etish bilan birga, uning sha'niga munosib, qadrini yerga uradigan xislatlarni ham qoralaydi. Mana, shunday sher'laridan biri:

Qo'lingizga tutdim bir g'ujum chilgi

Tatib ko'rdingizu dedingiz „g'o'rroq“

Lirik qahramon yaqin odamiga, balki sevgan yoriga tutgan chilgi uni mamnun qilmaydi. Nega? Nega uning sovg'alari necha martalab yor tomonidan rad etilgan. Shoir buning boisini loqaydlikda ko'radi:

Bo'saga loqaydlik kasofati bu.

Bo'saga chek qo'yma, bo'saga yo'q chek.

Bo'sa deb chaqnashda ko'zлari ohu...

Shu tarzda, bo'sa odamlar o'rtasidagi mehr va muhabbat ramzi sifatida ulug'lanadi, loqaydlik qoralanadi.

Mirtemir lirkasida psixologizm nechog'li teranlashganini "Majnuntol tagiga o'tqazing meni" deb boshlanadigan "Betobligimda" degan she'rida ham, „O'zim bilaman“ degan lavhada ham aniq ko'rish mumkin. Mirtemirning so'ngi kitobi „Yodgorlik“ deb ataladi. Shoir bu kitobida ham butun umri davomida kuylagan ohanglarga, amal qilgan estetik prinsiplariga sodiq qolgan. Lekin shoir she'riyatining fazilatlari bu kitobda o'zgacha bir tiniqlik kasb etgan. Yuqorida ko'rganimizdek, Mirtemir o'z ijodining boshidan oxirigacha ona-yurtni, Vatan go'zallagini kuylaydi. U oddiy mehnatkash odamni sevar, unga sajda qilar, u yaratgan va yaratadigan mo'jizalarni muqaddas deb bilardi. „Yodgorlik“ da shoir lirkasining shu xususiyatlari yangicha bir kuch bilan jilolanadi. Kitobda „Toshkent taronalari“, „Sen borsan“, „Toshkent oqshomlari“, „Yil boshi orzulari“, „Hindu raqqosasiga bag'ishlaganim“, „Baxt qo'shig'i“, „Yorti asr qo'shiqlari“ kabi she'rlar bor. Ular siyosiy publitsistik lirikaning namunalaridir. Mirtemirning bu she'rlari mazmunining teranligi bilan kishini maftun etadi. Shoir publitsistik she'rlarida butun Sharqning o'tmishi va buguni haqida gapiradi, o'zbek xalqining tarixiy taqdirini gavdalantiradi. Bu she'rlarda umumiy gaplar,

mavhum tasvirlar yoq, shoir konkret voqealar yordamida muayan shaxslarning taqdiri orqali ona-yurt manzaralarini chizadi va qayta-qayta o‘zining o‘zbek o‘lkasiga bo‘lgan teran muhabbatini ifodalaydi. Bunda shoir shunaqa samimiyatga erishadiki, uning hislari sizning qalbingizga ko‘chadi, siz ham ona yurt jamoliga shoir ko‘zi bilan qarab, uning beqiyos go‘zalligini tuya boshlaysiz. Masalan, „Toshkent oqshomlari“ she‘rini olaylik. Shoir uni yaqin do‘stlari davrasida o‘tirib hikoya qilayotgandek juda samimiy ohangda, oddiy suhbat, jonli so‘zlashuv ohangida boshlaydi: „Andijondan uchib kelayotgandik, so‘nggi reys edida, kechqurun edi „Shundan keyin oqshom chog‘I suyukli Toshkentning samolyot darchasidan ko‘ringan manzarasi haqida gap ketadi. Bu manzarani Toshkentga uchib kelgan har bir odam ko‘rgan. Shaharning bugungi manzarasi shoir xotiralarini uyg‘otadi, u o‘zi guvoh bo‘lgan kechagi kunlarni eslaydi, buyuk shaharning bugungi hayotidan iftixorini tasvirlaydi. Bugun go‘zal shahar qiyofasini kasb etgan joylarda bir mahallar shoirning o‘zi internatda yashagan, yozda ekin-tekin bilan band bo‘lib, qishda o‘qigan. Oqshom payti osmondan Toshkent qiyofasini tomosha qilish ko‘pni ko‘rgan shoir fikrlarida muhim umumlashmalar qo‘zg‘aydi, ularda hayot haqiqati ro‘y-rost tajassum topadi:

Ko‘z uzib bo‘lmaydi, sehrli manzara,  
Jozibador, yarq-yarq, oqin sharshara.  
Nima bo‘ldi, ertakmi yo Eram bog‘i?  
Yoki xayolatmi, nur aymog‘i?  
Yo‘q, samolyot sekin qo‘nmoqda edi  
So‘ngsiz bir kahkashon ustiga go‘ya...

Ana shunday teranlik va ehtiros, latofat, samimiyat shoirning boshqa she’rlarida ham etakchi o‘rin tutadi. Bunday she’rlarga qarab aytish mumkinki, Mirtemir siyosiy-publisistik lirikaning mavqeini, obro-e’tiborini qaytadan jonlantirgan shoirlarimizdan biridir.

Mirtemir hamisha o‘z ijodida oddiy odamlarni, mehnat kishilarini ulug‘lab kelgan. Uning so‘nggi she’rlarining qahramonlari ham oddiy paxtakorlar, g‘allakorlar, ishchilar, ziyorolar... Shoir ularning har biriga xos bo‘lgan noyob

fazilatlarni topadi va ulug‘laydi. Ko‘p she‘rlarida esa juda chuqur hayotiylik bilan shu odamlardagi oddiy fazilatlarni buyuklik darajasiga ko‘taradi. „Ishboshi“, „Siz shundoq“, „Paxtakor tilidan“, „Abror Xidoyat“, „Ovunchoq“, „Bu o‘sha“ kabi she‘rlar bu fikrning yaqqol dalilidir. Bu she‘rlar ichida ikki she‘r alohida ajralib turadi. Bularning biri „Pattining hasratlari“, ikkinchisi – „Toshbu“. Shu ikki she‘r o‘zbek ayolining vafosi va sadoqatiga, matonati va bardoshiga, ibosi va go‘zalligiga, xullas, uni chinakam inson qilgan fazilatlarga qo‘yilgan she‘riy haykaldir. Bu ikki she‘r G‘afur G‘ulomning „Xotinlar“ Oybekning „Raisa“ kabi asarlari qatorida turadi. Patti-kampir va jonon. Qo‘shning hovlisida ancha go‘dak bor. Ba’zan shapaloq jaranglab ketadi va go‘dak yig‘isi eshitiladi. Bunday paytlarda Patti „tilining uchida qotib qarg‘ishi, sovqotgan odamdek g‘ichirlab tishi“ go‘dagini chirqiratgan onani kampirdek qarg‘aydi:

Ha, ivirsiq banda, bag‘ring teshilgur,  
Betaroq sochingdan arqon eshilgur.

Negaki, u befarzand, tirnoqqa zor. Uning fojiasiga urush sabab bo‘lgan – Patti turmush qurib ulgurmay, sevgani frontga ketgan. Ketgan-u qaytmagan. Patti esa uni hanuz kutadi. Bu katta she‘rda butun umrini sevgili yorini kutishga bag‘ishlangan, bir umr hijron azobini tortgan, shu tufayli o‘zini turmushning ko‘pgina huzur-halovatidan bebahra qilgan ayolning monumental obrazi yaratilgan. Bu obraz tom ma’noda fojiona obrazdir. Butun umri o‘ksib o‘tgan, beshik tebratishga zor kechgan, y’ani har bir ayolning birlamchi va tabiiy tilagidan mahrum Pattining hayoti kitobxonni urush dahshatini yana bir karra yurakdan his etishga majbur qiladi.

„Toshbu“da o‘zgacha hayotiy vaziyat qalamga olingan. Toshbuning ham eri urushda qatnashib, o‘pkasida o‘q parchasi bilan, bir qo‘lidan ayrilib qaytgan. Bu detal she‘rda yo‘l yo‘lakay eslanadi. She‘rda urushning eng mashaqatli yillarida hamma qiyinchiliklarni zimmasiga olgan, ochlik va sovuqqa, muhtojlik va hijronga chidab, bolalarni voyaga etkazgan, o‘n juvonga bosh bo‘lib mehnat qilgan, shu fidoyiligi bilan g‘alaba onlarini yaqinlashtirgan oddiy o‘zbek

ayolining hayot yo‘li tasvirlangan. Shoир ixcham va tabiiy, yoniq xayrixohlikka to‘la satrlarda bu ayolning umumlashma tarjimai holini shu qadar mukammal aks ettirganki, kitobxon ham she’rning xulosasini o‘z qalbidan chiqayotgandek his qilib, shoирга qo‘shiladi:

Sensiz O‘zbekiston O‘zbekistonmas,

Sensiz keng jahon ham sira jahonmas.

„Yodgorlik“ to‘plamidan Mirtemirning intim lirikasi ham keng o‘rin olgan. Bizda „intim lirika“ degan ibora anchadan beri uzil-kesil salbiy ma’noda bo‘lmasa hamki, inobatsizroq ma’noda qo‘llanib kelardi. Bu ibora allaqanday tor, ahamiyatsiz, o‘tkinchi tuyg‘ular va fikrlarni talqin etuvchi she‘rlarni ifodalaydigan bo‘lib qolgandi. Aslida esa, intim lirika she‘riyatning siyosiy-publitsistik turlaridan farq qilaroq shoирning ichki dunyosini ifodalovchi, uning olam va hayot haqidagi o‘ylarini, tuyg‘ularini tasvirlovchi lirikadir. Tuyg‘ular ahamiyatsiz, o‘tkinchi, tor, sub‘ektiv bo‘lsa, bunga janr emas, shoир aybdor. Haqiqiy shoirlar intim lirikada san‘atning nodir namunalarini yaratganlar. Mirtemir ijodi ham bundan mustasno emas. Uning „Sutdek oydin“, „Qush“, „Men kelgum“, „Hayda“, „Armon“, „Chaqmoq“, „Chirildoq“, „Betobligimda“ kabi she‘rlari ijodining so‘nggi bosqichida Mirtemirning shoирlik tuyg‘usi g‘oyat o‘tkirlashganidan dalolat beradi. Biz bu she‘rlarda shoир qalbidan kechgan oniy hislar bilan tanishamiz. Bunday hislar bizga juda sinashta, chunki ular qachonlardir har biror damning qalbidan kechgan bo‘lishi mumkin. Biz shoirdan farq qilaroq o‘z vaqtida ularni ifodalovchi munosib so‘zlarni topganmiz, keyin esa bu yorqin va mungli, teran va jo‘shqin tuyg‘ularni unutib yuborganmiz. Shoирning xizmati shundaki, u ana shu tuyg‘ularga ism beradi, makonsiz hislarning makonini talqin etadi va ularning bizning qalbimizda qaytadan joylanishiga yo‘l ochadi. Shu tarzda, biz shoир bilan birga cheksiz xilma-xil olamdan hosil bo‘ladigan cheksiz xilma-xil tuyg‘ularni qalbimizda qayta kechiramiz.

Mirtemirning intim lirkasi shoir qalbi g'oyat ulkanligidan, hayotning hamma shabada va epkinlariga, hamma ohang va tovushlariga sezgir barometrdek aks-sado bergenidan dalolat beradi.

Mana, „Chirildoq“ she'ri. Eng oddiy tunlardan, birining tasviri. Eng oddiy chirildoq navosi. Biroq ana shu jo'n, oddiy narsalar ham she'rda birdaniga teran ma'no kasb etadi – shu chirildoq ovozsiz tun go'zalligi kemtik bo'lib qolishini, hayot ranglari kambag'allashishini his qilasiz. Shoirning mahorati, san'atkorligi shundaki, shu oddiy narsalar orqali tun go'zalligini, hayot nafosatini yurakdan tuyishga o'rgatadi:

Chirildoq chirillar. El esar – noxush!

Yulduzlar charaqlar... Oy o'n besh kunlik.

Kecha ko'p sehrgar, kecha tugunlik.

Chirildoq chirillar...

G'oyat nafis va ajib manzara! Ammo she'r faqat shu manzarani ifodalash uchun yozilmagan. Sukunat, shu sukunatni buzib yangrayotgan chirildoq tovushi shoirni olam haqida, uning murakkabligi, norasoligi, bu olamning to'kis, rasvo ko'rish haqida o'ylashga undaydi.

Bir chirildoq tovushi shoir qalbida olam haqida shuncha tuyg'u, shuncha o'y uyg'otgan. Bunday she'rlarning qimmati shundaki, ularda shoir o'z qalbi orqali insonning boy va rang-barang ma'naviy dunyosini, hayot bilan minglab iplar orqali bog'langan, undagi har bir tebranishga aks-sado beradigan qalbini ifodalagan. Bunday she'rlar odamni tabiatan yumshoqroq bo'lishiga, hayot go'zalligini qadrlab yashashga o'rgatadi.

Mirtemir ijodining so'nggi bosqichidagi asarlar shoir poeziyasidagi xalqchillik, beqiyos milliy ranglarga yo'g'rilgan obrazlilik, shaklining mukammalligi, uslubning tiniqligi yana bir pog'ona yuksakka ko'tarilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, shoir she'riyatining tili, o'lkamiz tabiatidek ranglarga, jilolarga boy uslubi kitobxonda yorqin taassutot qoldiradi.

Mirtemir bir she'rida „Qo'shiqlarim, siz uchun hijolatli emasman“, deb yozgan edi. Albatta, yarim asrlik olis ijod yo'lida Mirtemir har xil asarlar yozdi –

ular orasida zamonasozlik qilib yozilganlari ham maqtov va madhiyalarga keng o‘rin berilganlari ham, nozik sayqaldan, nafis jilolardan mahrumlari ham bor. Lekin biz hech qaysi shoir ijodining qimmatini uning necha bo‘s sh asar yozganiga yohud muvaffaqiyatsiz chiqqan asarlariga qarab belgilamaymiz. Ba’zan shoir bitta zo‘r asar bilan ham she’riyat tarixiga kirib qolishi mumkin. Mirtemir esa tug‘ma iste’dod egasi edi va, tabiiyki, uning baquvvat asarlari ko‘p edi. Shuning uchun o‘z she’rlari uchun xijolat bo‘lmaslikka batamom haqli edi. Uning she’riyati ko‘p yillar davomida „El dilini shu'lador qilib keldi“ va bundan keyin ham shunday bo‘ladi.

Mirtemirning adabiyot sohasidagi xizmatlari xalq va davlat tomonidan o‘z vaqtida taqdirlangan. Mirtemir „Mehnat Qizil bayroq“, „Hurmat belgisi“ ordenlari bilan mukofatlandi. Unga „O‘zbekiston xalq shoiri“ (1971) faxriy unvoni berildi.

Xullas, Uyg‘un ta‘kidlaganidek, Mirtemir „she’riyatimizning haqiqiqiy ma‘nodagi bobodehqoni, zahmatkash, ulkan shoirlardan biri“. U tom ma‘nodagi xalqchil va o‘ziga xos shoirdir. Mirtemir she’riyati hozirgi zamon o‘zbek adabiyotining jiddiy yutug‘idir.

### **III BOB. Ta‘lim bosqichlari dastur va darsliklarida Mavzuning berilishi**

#### **Mavzuni ta‘lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar**

Mirtemir hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yisha ma’lumotlar 5-sinf adabiyot darsligining 2-qismida va 7-sinf adabiyot dastur va darsliklarida berilgan. Bundan tashqari oliy ta’lim tizimida dastur va darsliklarida ham Mirtemir hayoti va ijodini o‘rganish kiritilgan.

5-sinf adabiyot darsligida Mirtemir hayoti va ijodi mavzusiga 3 soat ajratilgan. 7-sinfida Mirtemirning „Men tug‘ilgan tuproq“, „Onaginam“, „Toshbu“, „Betobligimda“, „Shudring“, „Qishlog‘im“ she‘rlarini o‘ganishga 2 soat ajratilgan. Mirtemir hayoti va ijodini o‘rganishda, uning she‘rlarini tahlil qilishda turli xil metodlar, usullar, o‘yin texnologiyalari, ZPT vositalaridan foydalanish mumkin, bu albatta dars samarasining yanada yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Metod va usullarni tanlashda albatta o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini, ularning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini e’tiborga olish zarurdir. Aks holda bu o‘quvchilarga bir muncha qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Ma’lumki, 5-sinf sinf o‘quvchilari boshlang‘ich sinfni endigina tamomlab kichik sinfga qadam qo‘yanligi uchun yuqori sinf o‘quvchilariga qaraganda sho‘xroq, o‘yinlarga qiziquvchan bo‘ladi. Ularga faqatgina nazariy ma’lumotlar berish bilan cheklanib qolsak bu o‘quvchilarda zerikish, darsga loqaydlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun biz darsda ko‘proq turli xil qiziqarli o‘yinlar, musobaqalar tashkil qilishimiz kerak. Bu o‘yinlarda ko‘proq o‘quvchilarning o‘zlari ishtirok qilishi, mustaqil fikrlar qabul qilishi va shu orqali o‘quvchi o‘z-o‘zidan mavzuni o‘zlashtirishi lozim. Bunday metodlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: „Doira“ o‘yini, „Raqmlar tilga kirganda“ usuli, „Kim ko‘p ball to‘playdi?“ o‘yini, „Raqamlarda savol yashirin“ usuli, „Begona so‘z“ kabi usullardan foydalanish mumkin.

Mirtemirning hayoti va ijodi mavzusini mustahkamlashda yoki uy vazifasini so‘rashda „Raqamlar tilga kirganda“ usulidan foydalanish mumkin. Bu usulda

o‘quvchilar 3 ta guruhga ajratiladi va guruhlar „Zukkolar“, „Bilimdonlar“, „chaqqonlar“ tarzida nomlanadilar. Har bir guruh o‘quvchilari Mirtemirning hayoti va ijodiga doir quyida berilgan yillar va sanalar ro‘parasiga shu sanada ro‘y bergen voqealarni yozadilar:

1. 1910-yil 10-may - shoir tug‘ilgan sana.
2. 1929-yil- Samarqand dorilfununiga o‘qishga kiradi.
3. 1928-yilda – “Tanburim tobushi” degan ilk she’ri nashrdan chiqadi.
4. 1932-yil 13-avgust - adib qamoqqa olinadi.
5. 1978-yil – shoir vafot etadi.

Har bir guruh yozgan ma’lumotlarini o‘qib beradilar va faol ishtirok etgan o‘quvchilar „Ofarin“ (5 ball), „Barakalla“ (4 ball), „Harakat qil“ (3 ball) rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

Mirtemirning she‘rlarini tahlil qilish darsida o‘quvchilarning she‘r mazmun-mohiyatini qanchalar eslab qolishganini sinab ko‘rish uchun „Begona so‘z“ usulini qo‘llash maqsadga muvofiq. Ushbu usul slaydda beriladi. Mirtemirning „Onaginam...“ she’ri va 5 ta so‘z ko‘rsatiladi, o‘quvchilar guruh bilan maslahatlashib, qaysi so‘z ushbu she‘r uchun begona ekanligini aytadilar. Bu usul orqali o‘quvchida she‘rni umumlashtirish, farqlay olish va eng asosiysi, test bilan ishslash ko‘nikmasini hosil qilinadi.

“Raqmlarda savol yashirin” usulini ham Mirtemir hayoti va ijodini o‘rganishda qo‘llash mumkin. Bu usulda o‘quvchilarga raqmlar yozilgan tarqatmalar tarqailadi. O‘qituvchi monitor orqali raqamlangan savollarni namoyish qiladi. O‘quvchilar o‘z raqmlari assosida savollarga javob beradilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni qizil, yashil va sariq kartochkalar bilan rag‘batlantiradi.

7-sinf adabiyot darsligida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda Mirtemirning hayoti va ijogiga doir kengroq ma’lumotlar keltirilgan va uning „Men tug‘ilgan tuproq“ „Onaginam“, „Toshbu“, „Betobligimda“, „Shudring“, „Qishlog‘im“ she‘rlari berilgan. Biz bilamizki, ular yuqori sinf o‘quvchilari, shu sababli o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga chorlaydigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. 7-sinfda sinf

o‘quvchilariga Mirtemir hayoti va ijodini o‘rgatishda „Chalkash ma‘lumotlar“, „She’r izohi“, „Qiyin so‘zlar“, „Davom ettir“ o‘yinlaridan va „Klaster“, „Aqliy hujum“ usuli, „Unutilmas misralar“ usullaridan foydalanish darsning samarasini va o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasini oshirishga, ularning mavzuga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning Mirtemir hayoti va ijodini qay darajada o‘zlashtirganliklarini sinash maqsadida „Davom ettir“ usulidan foydalanish mumkin. Buning uchun har bir o‘quvchi Mirtemir hayoti va ijodiga oid ma‘lumotlarni ketma-ket bayon etishlari kerak. Bu boshqa o‘quvchilar ham bilmagan ma‘lumotlariga ega bo‘lishiga va xotirasida saqlanib qolishiga yordam beradi.

„Chalkash ma‘lumotlar“ usuli ham Mirtemir hayoti va ijodini o‘rganishda yaxshi samara beradi. Bu usulda slayd orqali raqamlar ketma ketligida Mirtemir hayoti va ijodiga doir sanalar hamda alfavit harflari ketma-ketligida sanalarga oid chalkash voqealar jadval namoyish etiladi. O‘quvchilar jadvalni to‘g‘rilab to‘ldiradilar. So‘ng javoblar slayd orqali beriladi. Javoblar yig‘ib olingach, guruuhlar o‘zaro bir-birlarining javoblarini tekshiradilar va shu tarzda o‘quvchilar baholanadi.

Mirtemir she‘rlarini tahlil qilish darslarida „Unutilmas misralar“ usulidan foydalanish mumkin. Unda doskaga daraxt maketi tushirilgan plakat qo‘yiladi. Daraxtda Mirtemirning she‘rlari yozilgan barglar joylashtiriladi. Bunda 5-sinfda o‘quvchilar yod olgan Mirtemir ijodiga doir she‘rlar ham keltiriladi. O‘quvchilar chiqib barglardan birini olib, unda yozilgan she‘rdan parchani ifodali tarzda aytib beradilar va uni tahlil qilib beradilar. Shu tarzda o‘quvchilarning bilimlari sinaladi va mustahkamlanadi.

Mirtemirning hayoti va ijodi faqatgina 5- 7-sinf dagina emas balki yuqori sinflarda, sindf darsliklariga kiritilib o‘rganilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Metodik tavsiya sifatida akademik litseylarda Mirtemir ijodi o‘rganilsa, shoirning she‘rlari, dostonlaridan ham namunalar keltirilsa, bu o‘quvchilarning bilim saviyalarini yanada oshirardi.

## **Dars ishlanmasi**

**Mirtemirning „Men tug‘ilgan tuproq“ sh‘eri. (7-sinf IV chorak)**

### **Darsning maqsadi:**

- a) ta’limiy maqsad:** o‘quvchilarga Mirtemir hayoti va ijodi bo‘yicha ma’lumot berish, shoir ijodidagi bosh mavzu yurtga, tabiatga oshiqlik bolalik xotiralariga sadoqat, hayotga muhabbat tuyg‘ularini misollar orqali tushuntirish;
- b) tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarda Vatanga iftixor tuyg‘usini, shakllantirish, hayot go‘zalliklarini qadrlashga chaqirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarining og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirish, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

**Darsda foydalaniladigan usullar:** „Eshitamiz topamiz“, hikoya, suhbat, bahs-munozara.

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** Shoir portreti, 7-sinf darsligi, kompyuter, proyektor, kitoblar, shoir ijodidan lavhalar .

### **Darsning borishi:**

Dars unga vazifa qilib berilgan A.Qahhorning „Og‘ri“ va „Dahshat“ hikoyalari asosida tuzilgan tarqatmalar tarqatish bilan boshlanadi.

#### **1-tarqatma**

Nima uchun yozuvchi „Otning o‘limi – itning bayrami“ maqolini „O‘gri“ hikoyasiga epigraf qilib olgan deb o‘laysiz?

#### **2-tarqatma**

Qobil boboning holati tasvirlangan o‘rnlarga e’tibor qiling  
Nega u dag‘-dag‘ titraydi?

#### **3-tarqatma**

Hikoyadagi asosiy qahramonning Qobil bobo deb atalishiga e’tibor qildingizmi?  
Bu nomda biror yashirin ma’no bormi?

#### **4-tarqatma**

Hikoya nima uchun „Og‘ri“ deb nomlangan Og‘ri deganda muallif kimlarni ko‘zda tutgan?

#### **5-tarqatma**

Nima uchun hikoyaga „Dahshat“ deb nom berilgan?

Unsin engildimi? Irodali insonni, erksevar odamni engish mumkinmi?

O‘qituvchi o‘quvchilarni javobiga qarab baholaydi

**Yangi mavzu bayoni:** O‘qituvchi Mirtemirnin quydagisi she’rini o‘qiydi:

*Ha, men turkistonlik, Turkistondanman –*

*Olis bobolarning oltin tuprog‘i.*

*Munglik bir jafokash bir jahondanman,*

*Jafokash jahonning qadim aymog‘i.*

Mirtemir haqida adiblarning fikri slaydda namoyish etiladi.

*Mirtemir ulkkan shoир, jonajon do‘st tengi yo‘q dilkash inson edi.*

*Mirtemirni hamisha mashhur qalamkash salafllari qatorida barhayot deb bilamiz. U biz uchun G‘afur G‘ulom, Oybek, Shayxzoda va o‘zbek adabiyotining katta avlodiga mansub boshqa sa’natkorlar bilan yonma-yon turadi.*

**Chingiz Aytmatov**

*O‘zbek xalqining ardoqli shoiri Mirtemir hamisha barhayot. U xalqimizning qalbida avlodlarimizning mehru-muhabbatida, shoirning mакtabida o‘qigan, o‘qiyotgan qanchadan-qancha yosh adiblarimizning olmas iste’dodlarida, qoshiqlarimizning baland avjida mangu yashaydi.*

**Komil Yashin**

So‘ng Mirtemir ijodini esga olish uchun 5-sinfda o‘rganilgan she’riyatidan namunalar o‘qib eshittiriladi, buning uchun “**Eshitamiz topamiz**”, usulidan foydalilaniladi. Bu usul shartiga ko‘ra o‘quvchilarga kompyuter orqali shoir sherlaridan parchalar eshittiriladi, o‘quvchilar esa she’r nomini topishi kerak bo‘ladi.

*Ko‘k yuzida pag‘a bulut – oq bulut,*

*Oq bulutdan sut oqarmi yoki qut?*

*Pag‘a bulut - yahshi ko‘klam elchisi,*

*Havolarda yomg‘ir isi, sel isi....*

**Javob: “Bulut” she’ridan**

*Bizning qishlog‘ tog‘ bag‘rida,*

*Tog‘ bag‘rida – bog‘ bag‘rida*

*Etagida chopqillar soy,*

*Yozda tiniq – kuzda tiniq*

*Javob: “Baliq ovi” she’ridan*

To‘gri javob bergan o‘quvchilarga rag‘bat kartochkalari beriladi.

So‘ngra o‘quvchilar to‘rt guruhga bo‘linib, uyga qo‘sishimcha vazifa qilib berilgan Naim Karimovning “Koshkiydi qabring bo‘lsa” maqolasi yuzasidan o‘zlashtirgan ma’lumotlarni aytishadi.

**1-guruhi:** Mirtemir 1910-yil 10-mayda Turkiston bo‘sag‘asidagi Qoratog‘ etaklarida joylashgan Iqon qishlog‘ida tavallud topgan. Uning otasi - Tursunmuhammad, onasining ismi esa Mohirov bo‘lgan.

Shoirning o‘zi bu haqda: „Otam dehqon chorvador bo‘lgan, ona tomondan-bobom – mulla maktabdor. Ota tomondan bobom – uzun bo‘yli, uzun jussali, qizil yuzli odam edi. Ona tomondan bobom orta bo‘yli, charaqlagan ko‘zli, qora va chechan odam edi. Men bir- ikki yil shu bobom maktabida o‘qidim“ –deb yozgan.

Naim Karimovning fikricha, shoirdagi ezgulik, mayinlik mushfiqlik fazilatlari birga so‘z san’atiga, xalq ijodiga mehr-muhabbat tuyg‘ulari unga ona suti bilan kirgan.

**2-guruhi:** Shoirning otasi o‘g‘liga Mirtemir deb ism qo‘yish shunday ta’riflangan: „Amir Temurdek umri uzoq, bir qo‘lida qilich, bir qo‘lida Quron bo‘lsin. Ulg‘ayib hazratni yod etib, el-yurtni obod etsin!..“

Yosh Mirtemir ona bag‘rida o‘sgani uchunmi, yo qon tortibmi, mulla bobosining ta’sir doirasida bo‘lgan. Bobosining qishloq ahli o‘rtasida ilmli-bilimli kishi sifatida hurmat qozongani ham yosh Mirtemirning Isomiddin xojiga bo‘lgan mehrini oshirdi. Bu orada Mirtemirning ko‘pgina xalq rivoyatlari, ertaklari va hikmatlarini bilgan buvisi Bibizaynab b ilan maqalago‘y onasi ham uning oqishga bo‘lgan qiiziqishini yanada orttirdi.

Shunday qilib u o‘n bir yoshida u Toshkentga kelib, Almaiy nomidagi ish-maktabga joylashdi. Ikki yildan keyin Yangi shahardagi O‘lka o‘zbek erlar bilim

yurtiga ko‘chdi.1929-yilda bilim yurtinin a’lo baholar bilan bitirib,Samarqanddagi Pedagogika akademiyasiga oliy tahsil olish uchun bordi.

Toshkenda o‘tgan yillarda uning „Shu‘lalar qo‘ynida“ nomli ilk she‘riy to‘plami nashr etilib, yosh shoir el og‘ziga tushadi.

**3-guruh:** Kutilmaganda 1932-yilning 7-avgusti, tungi soat birda bemahal kelgan „mehmonlar“ Mirtemirni olib ketadilar. Mamlakat bo‘ylab bo‘shlangan qatag‘on yillarining ikkinchi to‘lqini yosh shoirni o‘z qariga tortadi.

1933 yil 5-noyabrda esa Mirtemirning onasi olamdan o‘tadi.

Begunoh holda qamalganiga, xo‘rlik va zo‘rlikning ming xil turiga chidagan shoir munis va mushfiq onasiga og‘ir kunlarida malham bo‘la olmagani uchun umr bo‘yi azoblanib yuradi.

**4-guruh:** 1960-yilga kelib u yuragidagi dardni, ruhiy iztirobni yuzaga chiqaradi. Uning „Onaginam“ deb nomlangan va bugun ham o‘qiganimizda yuraklarni larzaga soladigan o‘lmas she‘ri shu tarzda paydo bo‘lganini maqolani o‘qish davomida bilib oldik.

**O‘qituvchi:** „Onaginam“ she‘ri - oddiy she‘r emas. Bu -yig‘i. Shoirning yuragidan otilib chiqqan duv-duv ko‘z yoshlari. Bu alam bilan, armon bilan to‘la she‘rni kim o‘qimasin, uning dilida shoirning mushfiq onasiga, umuman, farzandlari deb yonib-kuyib o‘tgan barcha onalarga hurmat tuyg‘ulari alangalanadi.

Mirtemir umrining so‘nggi faslida yaratgan she‘rlarida ,volidai muhtaramasini eslab, uning she‘riy portretiga ayrim chizgilar qo‘shdi.Bu chizgilar orqali shoirning onasini engsak kiyib bo‘g‘riqib-bo‘rtib non yopayotgan, keyin boshoqlarini uqalab,puflab,qo‘g‘irmoch qovurayotgan yohud Kultepa ustida turib,Toshkentga yol olayotgan farzandiga duo-fotiha berayotgan holda ko‘ramiz.

Shoir umrining so‘nggi yillarida xastaligiga qaramay, qadrdon qishlog‘iga tez-tez borib turgan. Ana shunday paytlarda iqon sari etaklagan ohanrabo ham Ona mehri, Ona sog‘inchi edi desak yanglishmagan bo‘lamiz.

So‘ng o‘quvchilardan biri „Onaginam“ she‘rini ifodali o‘qiydi, qolgan o‘quvchilar darslikdan kuzatishadi.

Guruhlarga „Bu – men tug‘ilgan tuproq“ she‘rini mustaqil o‘qib tahlil qilish topshirig‘i beriladi. Ular quyidagicha tahlil qilishlari mumkin:

**1-guruh:** She‘rning dastlabki sakkiz satrida shoir tug‘ilgan tuproqning qalb mehriga limmo-limligini, yurtning tabiatiga xos go‘zalliklarini moxirona tasvirlar ekan „Kim noxos oyoq qo‘ysa, hahoratga yo‘yaman“, - deydi.

**2-guruh:** Keyingi sakkiz misra shoir „yog‘rilgan tuproq“ asosiga qurilgan bo‘lib, o‘lkadagi fasllarning o‘ziga xosliklari haqida chiroyli o‘hshatishlar beriladi. Tug‘ilgan joyiga, avlod –ajdodlariga mehrini so‘zlar vositasida izohlaydi.

**3-guruh:** Shoir „ulg‘aygan tuproq“ satrlarida, tuproqning dehqonchilikka, yayloving chorvachilikka moslgini go‘zal tashbehlar bilan sharhlab beradi.

**4-guruh:** Shoir „umr ko‘rgan tuproq, bobo bo‘lgan tuproq“ bandlariga Vatanining ulkan boylikka egaligini tasvirlash orqali o‘zining yurtiga so‘nmas mehr-muhabbatini, vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirgan.

O‘qituvchi guruhlarning javobini quyidagicha to‘ldirish mumkin.

Mirtemirning „Bu – men tug‘ilgan tuproq“ she‘rini o‘qib, shunday xulosaga kelish mumkinki, kishi o‘z yurtini, tuprog‘ini yaxshi ko‘rishi kerak, nafaqat yaxshi ko‘rish, balki unga mehr berib, avaylab asrashi, Vatan ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shishi kerak.

**Mustahkamlash:O‘qituvchi „Onaginam“ she‘ri yuzasidan quyidagicha savollar beradi:**

**1-guruhga:** Mirtemirning „Onaginam“ she‘rini yozishda hayotdagি qaysi boqealar saboq bo‘lgan?

**2-guruhga:** Ona oldida farzandlik burchini o‘tay olmagan kishining afsuslari ifodasi eng avjiga chiqqan o‘rinlarni aniqlang?

**3-guruhga:** „Onaginam“ she‘rini boshdan oyoq bir hil ohangda, bir hil zarb bilan o‘qib bo‘adimi? Ohanglar almashinib tushishiga sabab nima?

**4-guruhga:** „Tog‘day zil“ ifodasi nima uchun alohida bir misraga chiqarilgan va uni qanday o‘qish kerak deb o‘ylaysiz?

O‘quvchilar javoblariga qarab baholanadilar.

O‘quvchilarning Mirtemir ijodi bo‘yicha olgan bilimlarini tekshirish maqsadida test sinovi o‘tkaziladi.

1. Mirtemirning birinchi she‘rlar to‘plamining nomini toping.

- A. „Shu‘lalar qo‘ynida“
- B. „Poytaxt“
- C. „Zafar“
- D. „O‘ch“

2. Shoirning ilk she‘ri qaysi qatorda berilgan.

- A. „Toshbu“
- B. „Tanburim tovushi“
- C. „Betobligimda“
- D. „Shudring“

3. „*Esimda unitilmas - ko‘daklik chog,*

*O‘sha kunlarimdan qalbimda bor xat...*“ misralari qaysi she‘dan olingan.

- A. „Onaginam“
- B. „Qishlog‘im“
- C. „Oylar“
- D. „Mening bolaligim“

4. Mirtemirning urush yillarida yaratilgan, dushmanga nafrat hislari jangovar ruhda ifodalangan she’rlarinin aniqlang.

- A. „Bu –mening Vatanim“, „Ona shahar“
- B. „Vabo“, „O‘ch“
- C. „Dengiz bo‘yida“, „Mard yigit, yoring bo‘lay“
- E. A, B va D

5. Shoir tarjima qilgan asarlarni belgilang.

- A. A.Nekrasovning „Russiyada kim yaxshi yashaydi ?“
- B. M.Gorkiyning „Baron qushi haqida qo‘shiq“
- C. A va B
- D. To‘g‘ri javob yo‘q

6. „*Mirtemir she‘riyatimizning haqiqiy ma‘nodagi bobodehqoni zahmatkash, ulkan shoirlardan biri*“. Bu fikrlarni kim aytgan?

- A. Komil Yashin
- B. Uyg‘un
- C. Chingiz Aytmatov
- D. Maqsud Shayxzoda

7. Mirtemir qalamiga mansub dostonlarni toping?

- A. „Bong“
- B. „Dilkusho“
- C. „Nomus“
- D. A, B, D

8. Shoirning „Bir go‘zal“ qo‘shig‘idan olingan quyidagi misralarida qanday she’riy san’atlar qo‘llangan?

*„Deydilarkim shaxrimda bir go‘zal bormish,  
Har oqshom boqga kirib mani so‘rarmish.  
Izlarimni topolmay ohlar urarmish –  
Gir-gir yurarmish, hayron bo‘larmish  
O‘ltirib yoproqlar-la suhbat qurarmish.  
Ishq uchun osmas kimsa meni, deb dorga-  
Ba’zan qo‘lin cho‘zarmish mungli dutorga,  
Sog‘liqlar tilar emish olisda yorga,  
Asl xushtorga, hajrida zorga...  
Salomlar yo‘llar emish bu intizorga”.*

- A. Jonlantirish
- B. Sifatlash
- C. Qarshilantirish
- D. A va B

**Baholash va rag‘batlantirish:** Guruhlar yiqqan rag‘bat kartochkalar asosida baholanadilar. Darsda faol ishtirok etgan guruhga Mirtemirning she‘riy to‘plami sovg‘a qilinadi.

**Uyga vazifa:** „Mening onam“ mavzusida insho yozishga hozirlik ko‘rish.

## X U L O S A

XX asr adabiyoti ayniqsa, barcha davr o‘lchamlaridan ko‘proq o‘z gardiniga kurashchanlik mas’uliyatini oldi. Bu mas’uliyat Millat, Vatan, o‘zlikni anglashni o‘z oldiga ko‘ndalang qo‘ydi. Bunga misol tariqasida Mirtemir she’riyatini keltirish o‘rinli. Mirtemirning qiyofasini belgilaydigan, uni o‘zbek kitobxonasi uchun ardoqli qilgan narsa –uning she’riyati. Mirtemir samimiy tuyg‘ularni, nozik kechinmalarni sodda va tushunarli ifodalay oladigan san‘atkor. Asr boshi o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan bir necha adabiy maktablar vujudga kelganligi ko‘p bora qayd etiladi. Mirtemir she’riyati ana shu adabiy maktablarni yangicha shaklga ega ,o‘zgacha milliy ruhga yo‘g‘rilgan ohang bilan boyitdi.

Shunday ekan adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilikda Mirtemir ijodining ilmiy asosda o‘rganish va yoritish sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi. T.Jalolov, O.Sharafiddinov, S.Mamajanov, N.Karimov, H.Olimjanova maqolalarida, K.Azimovning „Mirtemir“, I.G‘afurovning „Ona yurt kuychi“, T.Xalilovning „Mirtemir mahorati“, B.Qurbanbaevning „Mirtemir – do‘stlik va qardoshlik kuychisi“ risolalarida shoir asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bayon etildi. Shunga ko‘ra, maqola va risolalarni Mirtemir ijodini ilmiy asosda o‘rganish sohasidagi dastlabki yutuq deb hisoblash mumkin.

Malakaviy bitiruv ishi uch bobdan iborat bolib, ishning birinchi bobi „Mirtemir ijodida folklor“ deb nomlangan. Bu bobda o‘zbek she’riyatida Mirtemirning xalq hayotidan olib yozilgan she’riy asarlari alohida bir turkumni tashkil qiladi. Uning xalq poeziyasiga hos uslubda bitilgan she‘rlari, ifoda shaklining sodda va ravonligi, manosining chuqurligi, samimiy va jarangdorligi, chinakam milliyligi bilan ajralib turganligi haqida to‘htalib o‘tdik.

Mirtemir o‘z qo‘sishqlari orqali bizni turmushning murakkab tomonlari to‘g‘risida o‘ylashga majbur etadi va hayot haqida bo‘yalmagan, yaltiratilmagan, mukammal tasavvur tug‘dirishga intiladi. Hayot haqiqatini teran, ta‘sirchan va nafis obrazlarda ifodalashi tufayli Mirtemirning „Kuylar yigirma yoshim“, „Yali-yali“, „Bir go‘zal“, „Men seni“, „O‘ynasin“, „Bitta o‘zim bilaman“, „Meni yod

et“, „Jonon o‘ynasin“, „Barno qo‘shig‘i“, „Ona orzusi“, „El qo‘shiqi“, „Qarqaralik“, „Bog‘ ko‘cha“ singari qo‘shiqlari shoirning o‘nlab she’riy kitoblari, dostonlari va dramalari kabi madaniy turmushimizda sezilarli voqeа bo‘lib qoldi. Ular san‘atimiz xazinasidan o‘rin olishining yana bir sababi shundaki, bu qo‘shiqlarga G‘anijon Toshmatov, Faxriddin Sodiqov, Muhammadjon Mirzayev, Imomjon Ikromov, Mutual Burhonov singari yetuk san‘atkorlar kuy bastaladilar va Faxriddin Umarov, Mahbuba Hasanova, Kommuna Ismoilova, Hadya Yusupova kabi xushovoz xonandalar ijro etdilar. Demak, zargarona so‘z san‘ati, ulkan bastakorlik iste‘dodi va yuksak xonandalik mahorati o‘zaro birlashib, Mirtemir qo‘shiqlariga umrboqiylik baxsh etdi. Bu qo‘shiqlar umrboqiyligini ta‘minlagan muhim omillardan yana biri ularning deyarli barchasida go‘zallikning tasdiqlanishi hisoblanadi. Hayot illatlaridan, murakkabliklaridan ko‘z yummagan bo‘lsa-da, shoir Mirtemir qo‘shiqlarining aksariyatida turmushning nurli tomonlarini ulug‘ladi, inson muhabbatini tengsiz go‘zal tuyg‘u sifatida madh etdi va ularni ardoqlashga, yod etishga chaqirdi.

Mirtemir she‘riyatida badiiy mahorat deb nomlangan ikkinchi bobda o‘zbek adabiyotida Mirtemir she‘rlarining badiiy-estetik hususiyatlari, shoirning milliy xarakter yaratish mahorati tahlil qilindi. Mirtemir she‘riyatida soddalik va samimiylidka, tilning ravonligida, shoirning so‘z va detal tanlash mahoratida, o‘zga xalqlar hayotini milliy xususiyatlari bilan badiiy talqin qilish uslubida ko‘rinadi. Malakaviy bitiruv ishimizning yuqoridagi ikki asosiy bobidan tahlillaridan ko‘rinib turibdiki, Mirtemir faqat o‘zbek adabiyotidagina emas, ayni paytda boshqa qardosh, boshqa xalq kitobxonlarida ham yaxshi tassurotlar qoldirgan ulug‘ shoirdir.

Malakaviy ishining uchinchi bobida umumta’lim maktablarining o‘quvchilari uchun chiqarilgan o‘quv dasturlari, darsliklar to‘g‘risidagi qarashlariga u tadqiq etgan mavzuning qay darajada aks etganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar berildi .

Shoirning Vatan, Til, Millat, G‘ururi kuylangan she‘rlari maktab darsliklaridan o‘rin olgan. Uning „Toshbu“ she‘rini o‘qigan kitobxon urushning

eng mashaqqatli yillarida hamma qiyinchiliklarni zimmasiga olgan , ochlik va sovuqlikka , muxtojlik va hijronga chidab, bolalarini voyaga yetkazgan, o'n juvonga bosh bo'lib mehnat qilgan javokash va fidoyi o'zbek ayolining obrazi orqali matonatli millat siyemosini ko'radi:

*Sensiz O'zbekiston O'zbekistonmas,*

*Sensiz keng jahon ham sira jahonmas, Toshbu!*

Mirtemir she'riyatida tabiat mavzusi yetakchilik qilsa-da,bu holat ko'p o'rirlarda shoir dardlarini kuylovchi vosita rolini bajaradi:

*Chirildoq chirillar. yel esar-noxush!*

*Yulduzlar charaqlar... Oy o'n besh kunlik.*

*Kecha ko'p sehrgar, kecha tugunlik.*

*Chirildoq chirillar...*

Sokin tun qalbini timdalayotgan chirildoq tovushi nimaning obrazi? Buni shoirning olam haqida, uning murakkabligi, norasoligi, yurakni kemirib kelayotgan dardlarning o'zgacha shakliga mengzagim keladi. Bu balkim Xeminguey ta'kidlagan ijodkorning yovuzlikka nisbatan isyonidir.

Mana shunday katta salohiyatga ega bo'lgan Mirtemir ijodining umumta'lim maktablarining o'quv dasturlariga kiritilib o'qilishi ham mantiqan katta asosga ega. Shoir she'rlari o'quvchilarini vatanga sadoqat, do'stlik, insonparvarlik, adolatli bo'lish, kamtarinlik kabi oljanob fazilatlar ruhida tarbiylashda katta ahamiyatga egadir.

Hulosa qilib aytganda Mirtemir she'riyati odamlarni Vatanni sevishga, oddiy odamlarni, mehnat kishilarini ulug'lashga o'rgatadi. Uning so'nggi she'rlarining qahramonlari ham oddiy paxtakorlar, g'allakorlar, ishchilar, ziyolilar...Shoir ularning har biriga xos bo'lgan noyob fazilatlarni topadi va ulug'laydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Karimov I.A. Asarlar. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, „O‘zbekiston“-1998
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
3. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik (Akademik M.Nurmuhamedov tahriri ostida)-Toshkent, 1978 yil
4. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T., „O‘qituvchi“, 1999.
5. Asarlar. To‘rt jildlik. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1980-1983.
6. Azizov Q. Mirtemir. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1969.
7. Karimov N. Bitta o‘zim bilaman. “Sharq yulduzi”, 1991, 5-sон.
8. Xalilov T. Mirtemir mahorati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980.
9. Sharafiddinov O. Mirtemir. „Birinchi mo‘jiza“ kitobida. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979.
10. Shukurov N. Bu olam sahnida. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1982.
11. G‘afurov I. Ona yurt kuychisi. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970.
12. XX asr o‘zbek adabiyoti (majmua). T., „O‘qituvchi“, 1993.
13. Sultonov I. Saylanma. Uch jildlik. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989
14. Yoqubov H. Saylanma. Ikki jildlik. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983-1984.

- 15.Qo'shjonov M. Saylanma. Ikkii jildlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
- 16.Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
- 17.Normatov U. Qalb inqilobi. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
- 18.Xudoyberganov N. Ishonch. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
- 19.G'afurov I. O'ttiz yil izhori. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
20. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T.O'qituvchi. 2005
21. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi.T., 2005 .
22. www. ziyonet. uz
23. www. edu. uz
24. www.o'zbek adabiyoti. com.
25. www. ziyo.uz
- 26.ww w.e-adabiyot.uz
- 27.www. FFo'zbek adabiyoti.com



